**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Tar.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

ABDURAHMONOV ZUHRIDDIN XOLDORALI O‘G‘LI

QO‘QON XONLIGI DIPLOMATIYASINING TARTIB-QOIDASI VA ETIKASI TARIXI

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2026

UO‘K: 94:327.82(575.1)

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по историческим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on Historical Sciences

Abdurahmonov Zuhriddin Xoldorali o‘g‘li
Qo‘qon xonligi diplomatiyasining tartib-qoidasi va etikasi tarixi 3

Абдурахмонов Зухриддин Холдорали угли
История протокола и этики дипломатии Кокандского ханства 27

Abdurahmonov Zuhriddin Xoldorali ugli
The history of the protocol and etiquette of the diplomacy of the Kokand Khanate 59

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 64

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Tar.11.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

ABDURAHMONOV ZUHRIDDIN XOLDORALI O‘G‘LI

QO‘QON XONLIGI DIPLOMATIYASINING TARTIB-QOIDASI VA ETIKASI TARIXI

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2026

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.(PhD)/Tar1286 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Berdiyev Jamshid Panjiyevich** tarix fanlari doktori (DSc), professor v.b.
Rasmiy opponentlar:	**Xudayqulov Tulqin Dustboboyevich** tarix fanlari doktori (DSc), professor
	Matyakubova Muborak Madrimovna tarix fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Qo'qon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Tar.11.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 7-dekabr soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180119, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17 uy. Tel.: (+99875) 221-21-04; faks: (+99875) 220-02-10; e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (594-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 180119, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17 uy. Tel.: (+99875) 221-21-04.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 21-noyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil 21-noyabrdagi 50-raqamli reyestr bayonnomasi)

B. J. Eshov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

N. N. Rajabova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari nomzodi, dotsent

F. Sh. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. So‘nggi yillarda jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari har bir xalqning milliy o‘zligi va davlatchilik an’analarini saqlab qolishni hamda taraqqiyot yo‘lini belgilashini taqozo etmoqda. Shu boisdan, bugungi kunda jahon tarixiy taraqqiyotida o‘zining ma’naviy va madaniy merosi hamda davlatchilik an’analari bilan muhim o‘rin tutgan o‘zbek davlatchiligi tarixini chuqur tadqiq etish ahamiyatli hisoblanadi.

Dunyo hamjamiyatining zamonaviy globallashuv jarayonlari bevosita mintaqalararo aloqalarning tarixiy ildizlariga chambarchas bog‘liq. O‘rta Osiyo mintaqasi turli madaniyatlar va siyosiy-iqtisodiy manfaatlar kesishgan hudud sifatida alohida o‘ringa ega. Mintaqadagi Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonligiga qarashli hududlar esa umuminsoniy qadriyatlar rivojiga katta hissa qo‘shgan qadimiy sivilizatsiya o‘choqlaridan biri bo‘lib, ularning taraqqiyoti jahon xalqlari tarixi bilan uzviylikda kechgan. Bu esa hududning qadimiy sivilizatsiya o‘choqlaridan biri ekanligining yorqin dalilidir.

Markaziy Osiyo tarixi, xususan, mintaqada XVIII–XIX asrlarda hukm surgan Qo‘qon xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayotining turli jihatlari qatorida elchilik aloqalari tarixi jahonning bir qator yetakchi ilmiy markazlarida o‘rganilib kelinmoqda. Xususan, xonlik elchilik aloqalarini olib borgan Rossiya imperiyasi, Usmoniylar, Xitoy, Hindiston kabi davlatlarning turli arxiv fondlarida saqlanayotgan xonlik elchilik aloqalariga oid yozishmalarning ayrimlari hozirgi kunda tadqiqotchilar tomonidan ilmiy jihatdan o‘rganilmoqda. Biroq, ushbu tadqiqotlarda xonlikning elchilik etikasi va tartib-qoidalari yetarli darajada o‘rganilmagan. Bu esa xonlik diplomatiyasi tarixini o‘rganish, xonlikka tashrif buyurgan turli davlat elchilarini qabul qilish tartib-qoidalari va elchilik etiketini tadqiq etishda mintaqada kechgan turli geosiyosiy o‘zgarishlarga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, ushbu masala dolzarb ahamiyatga egadir.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi dunyoning yirik davlatlari bilan keng miqyosli hamkorlik olib borayotgan, ayniqsa, uning jahon hamjamiyati bilan tashqi aloqalari yangi sifat bosqichiga ko‘tarilayotgan sharoitda xalqaro aloqalar tarixini chuqur tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zero, “bizning milliy davlatchiligimiz necha ming yillik qadimiy tarix va boy madaniyatga ega. Binobarin, diplomatik munosabatlar ham tariximizning eng chuqur qatlamlariga borib taqaladi. Bu haqiqat nafaqat mamlakatimiz, balki dunyo olimlari tomonidan keng e’tirof etilgan”[1]. Mazkur dissertatsiya “O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2017-yil 19-maydagi PF-5046-sonli “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2022-yil 10-fevraldagi PQ-126-sonli “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tashqi ishlar vazirligi va mamlakatimizning xorijiy davlatlardagi elchixonalari faoliyatiga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqi // https://president.uz/uz/lists/view/1423 (Murojaat qilingan sana. 05. 06. 2025).

takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlashga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya Respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish tizimlarini, iqtisodiy innovatsion g‘oyalarni shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qo‘qon xonligining qo‘shni Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Rossiya imperiyasi, Usmoniylar davlati, Xitoyning Sin imperiyasi, Afg‘oniston va Hindiston bilan o‘zaro elchilik aloqalari, ya’ni xonlik diplomatiyasining tartib-qoidasi hamda etikasi tarixiga doir kompleks tadqiqot bugungi kunga qadar amalga oshirilmagan. Lekin, ushbu mavzu doirasida bir qator muhim ilmiy adabiyotlar, shuningdek, ba’zi tadqiqotlarda masalaning ayrim jihatlari o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ularni quyidagi to‘rt guruhga bo‘lib tahlil qilindi: Birinchi guruhga – Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida yozilgan asarlar, ikkinchisiga sovet davrida yaratilgan tadqiqotlar, uchinchisiga mustaqillik davrida yozilgan asarlar va to‘rtinchi guruhga xorijiy adabiyotlarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi guruh adabiyotlarini asosan, rossiyalik sayyoh, elchi, harbiy va olimlarning asarlari tashkil etadi. Ushbu asarlarda Qo‘qon xonligining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti bilan birga mamlakatning tashqi aloqalari xususida ham ma’lumotlar aks etgan[2].

Ikkinchi guruhni sovet davrida yaratilgan adabiyotlar tashkil etib, ushbu yo‘nalishda salmoqli o‘rin tutgan ayrim tadqiqotlarni alohida tahlil qilish joiz. Jumladan, O. Aminov, H. Ziyoyev, R. Nabiyev, F. G‘afforov, A. Hamrayev, A. Muxtorov va A. Hasanov ishlarida xonlikning iqtisodiy, savdo hamda diplomatik aloqalariga oid ma’lumotlar yoritilgan[3].

Uchinchi guruhni esa mustaqillik davrida yaratilgan adabiyotlar tashkil etadi. Ma’lumki, O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tarixchilarga keng imkoniyatlar ochildi va tarixni obyektiv ravishda yoritish jarayoni boshlandi. Endilikda

---

[2] Небольсин П. И. Очерки торговли России с Средней Азией / Зап. РГО. Кн. X. – СПб., 1855. – С. 1–355; O‘sha muallif: Следование караванов из Бухары в Россию и обратно (Очерки торговли России со странами Средней Азии, Хивой, Бухарой и Кокандом). – СПб., 1856. С – 376.; Хорошхин А. П. Очерки Коканда / Туркестанский сборник. Т. 116. – СПб., 1876. – С. 170–195; O‘sha muallif: Сборник статей касающихся по Туркестанского края. – СПб., 1876. – С. 533.; Федченко А. Из Кокана. Сведения о путешествии по Коканскому ханству / Известия ИРГО. Том VIII. – 1870. – С. 6–20; O‘sha muallif: Из Кокана / Ежегодникъ. Материалы для статистики Туркестанскаго края / Под. ред. Н. А. Маева. – СПб., 1873. – С. 387–404; O‘sha muallif: В Кокандском ханстве. – СПб., 1875. – С. 160.; Ибрагимов И. Пять дней в Кокане // Туркестанские ведомости. – 1872. – №20.

[3] Аминов О. XVI–XIX асрларда Ўрта Осиё – Россия. – Тошкент, 1958; Зиёев Ҳ. Ўрта Осиё ва Сибирь (XVI–XIX асрлар). – Тошкент: Фан, 1962. – 340 б.; O‘sha muallif: Туркистонда Россия тажовузи ва унга қарши кураш. – Тошкент, 1998. – 480 б.; Набиев Р. Из истории Кокандского ханства (Феодальное хозяйство Худоярхана). – Ташкент: Фан, 1973. – С. 388.; Ғаффоров Ф. Россия билан Қўқон хонлиги ўртасидаги иқтисодий ва сиёсий алоқалар. Тар. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1970; Хамраев М. Очерки истории Хисарского бекства конца XIX и начало XX вв. – Сталинабад, 1959. – С. 89.; Мухтаров А. Очерк истории Ура-Тюбинского владения в XIX в. – Душанбе: Наука, 1964. – С. 183.; Хасанов А. Взаимоотношение киргизов с Кокандским ханством и Россией в 50–70 годах XIX в.: Дисс.... д-ра ист. наук. – Москва, 1961.

tadqiqotchilar uchun xonlik tarixini ishonchli asl manbalar asosida o‘rganish imkoniyati berildi. Xususan, qo‘qonlik muarrixlar tomonidan bitilgan 40 dan ziyod birlamchi manbalarning ilmiy muomalaga kiritilishi va ularda xonlikning turli sohalari qatori diplomatik munosabatlari yoritilganligi keyingi davr tadqiqotlarida o‘z aksini topdi.

To‘rtinchi guruh adabiyotlarini xorijlik tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan izlanishlar tashkil etib, ular asosan qozoq[4], tojik[5] va turk[6] olimlari tomonidan yaratilganligi bilan xarakterlanadi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy o‘quv yurtining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mavjud manba va adabiyotlar asosida XVIII–XIX asrlarda Qo‘qon xonligi diplomatiyasining tartib-qoidasi va etikasiga doir masalalarni o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Xonlikda tashqi diplomatik munosabatlar mexanizmining shakllanishi va uning amaliy jihatlarini tahlil etish;

xonlikda diplomatik etiket va muzokaralar olib borish qoidalarini yoritish;

mamlakatning Buxoro va Xiva xonliklari bilan o‘zaro aloqalarini ilmiy tahlil qilish;

Qo‘qon xonligi va Rossiyaning o‘zaro munosabatlarini yoritib berish;

Qo‘qon xonligi va Usmonli turklar o‘rtasidagi aloqalarni ilmiy-qiyosiy tahlil qilish;

Qo‘qon xonligining Sharqiy Turkiston va Xitoy bilan aloqalarining ahamiyatini tahlil qilish;

xonlikda davlat boshqaruvi va hokimiyat legitimatsiyasi masalasining ichki va tashqi aloqalarga bog‘liq jihatlarini tahlil etish. Shuningdek, mavzuga oid manba va adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish jarayonida olingan xulosalarga tayanib, qo‘shimcha taklif hamda tavsiyalar berish nazarda tutilgan.

---

[4] Beysembiev T. Farghana's contacts with India in the 18th and 19th centuries (according to the Khokand chronicles): In Memory of Sir E. Denison Ross, the Eminent British Orientalist // Journal of Asian History. – 1994. – Vol. 28. – №2. – P. 124–135; O‘sha muallif: Кокандская историография. Исследование по источниковедению Средней Азии XVIII–XIX веков. – Алматы, 2009. – С. 1263.

[5] Маъмуров А. Relations дипломатии Хонлии Хӯқанд бо Империяи Тсӯн (Син) дар асри XIX / А. Маъмуров. – Хуҷанд: Ношир, 2015. – С. 88–134; Турсунов Б. Дипломатические отношения Кокандского ханства при правлении Мухаммада-Алихана (1822–1842) // Номаи донишгоҳ-Учёные записк. – Хужанд, 2019. – №1 (58); O‘sha muallif: История политической жизни Кокандского ханства. Книга I. – Худжанд, 2021. – С. 349.; O‘sha muallif: История политической жизни Кокандского ханства (с 1709 г. до первой половины 50-х годов XIX в.). Автореф. дисс…д-ра ист. наук. – Душанбе, 2022; Абдукаримов Ж. Политическое положение Ура-Тюбинского владения и Худжанда в начале XVIII до 40-х гг. XIX в. (по материалам «Мунтахаб ат -таварих» Мухаммада Хакимхана). Автореф. дисс.… канд. ист. наук. – Душанбе, 2020.

[6] Saray M. Rus isgali devrinda Osmanli devleti ile Turkistan hanliklari arasindeki siyasi munasabetler (1775–1875). – Ankara: Turk tariuh kurumu, 2017. – 200 s.; O‘sha muallif: The Russian, British, Chinese and Ottoman Rivalry in Turkestan. – Ankara: Turk tariuh kurumu 2003; Erdogru Akif. The Khoqandi Envoys in Ottoman Istanbul // Central Asian Journal. – 2008. – №52/1. – Pp. 1–11; Macit Abdulkadir. Başbakanlık Osmanlı Arşiv Belgeleri Işığında XIX. Yüzyıl. Osmanlı – Hokand Hanlıgı Münasebetleri. (Yüksek Lisans tezi). – İstanbul, 2008; Otakhonov F Hokand Hanlığı Merkez Teşkilatı Doktora Tezi. – Ağustos 2023.; Hüseyin ŞEN Muhammed Ali Han dönemi Hokand hanliği (1822–1842): Doktora tezi. – Istanbul, 2020; Kamalova Z. Hüdayar han döneminde hokand hanliği (1845–1875): Doktora tezi. – Istanbul, 2019.

Tadqiqotning ob’yekti XVIII–XIX asrlarda Qo‘qon xonligining diplomatik faoliyati, jumladan, mazkur davrda shakllangan diplomatik protokol me’yorlari, diplomatik tartib-taomillarni amalga oshirish qoidalari hamda diplomatik etiket tizimidan iborat.

Tadqiqotning predmetini Qo‘qon xonligida diplomatik protokol va etiketning shakllanish tarixi hamda o‘ziga xos xususiyatlari, jumladan, diplomatik missiyalarni tashkil etish va amalga oshirish tartibi, xorijiy davlatlar elchilarini qabul qilish, muzokaralar olib borish, diplomatik marosimlarni o‘tkazish hamda xorijiy davlatlar vakillari bilan rasmiy muloqot olib borish amaliyotini o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotning usullari. Ma’lumotlarni tizimlashtirish, muammolarni kompleks umumlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil va davrlashtirish, tarixiylik, xolislik tamoyillari kabilardan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Tadqiqot jarayonida XVIII asr boshlaridan Qo‘qon xonligi ichki va tashqi diplomatik aloqalarining institutsional asoslari har tomonlama ochib berildi. Mavjud ilmiy adabiyotlarning aksariyatida Qo‘qon xonligida diplomatik etiket va muzokaralar olib borish qoidalari, umumiy qabul qilingan dalillardan farqli o‘laroq, ushbu ishda ko‘rib chiqilayotgan davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarning asosiy xususiyatlari, tabiati hamda mohiyati aniqlandi va faktik materiallarga asoslanib, qiyosiy tahlil asosida tegishli xulosalar chiqarilgan;

Qo‘qon xonligining qo‘shni davlatlar bilan siyosiy munosabatlari turli shakllarda, ya’ni oliy hukmdorlarning shaxsiy uchrashuvlari, elchixonalar almashinuvi, harbiy ittifoqlar, shuningdek, nikoh bitimlari orqali amalga oshirilganligi faktik materiallar asosida ko‘rsatilgan. Jumladan, Chodak xo‘jalari hamda “Oltin beshik” rivoyatiga oid “Tarixi Turkiston” va Mushrif – Mirzo Qalandar Isfaragiyning “Shohnomayi nusratpayom” asarlaridagi ma’lumotlar qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, Qo‘qon xonligi davlat boshqaruv tizimidagi shig‘ovul mansabining vazifalari va funksional ahamiyati manbalar asosida aniqlashtirilgan;

Qo‘qon xonligi diplomatiyasining tartib-qoidasi va etikasining o‘ziga xos jihatlari, ya’ni hududida xorijiy davlatlarning elchixonalari mavjud bo‘lmagan holda ham ziddiyatli yoki qo‘shni mamlakatlar bilan keng miqyosda elchilar almashinuvi yo‘lga qo‘yilganligi ko‘rsatib berilgan;

Qo‘qon xonligida tashqi diplomatik munosabatlar mexanizmining shakllanishi va uning amaliy jihatlariga aniqlik kiritilgan. Ya’ni, xonlik davlat boshqaruvi va hokimiyat legitimatsiyasi masalasining ichki munosabat va tashqi aloqalarga bog‘liq jihatlari dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qo‘shni davlatlar tarixiga bag‘ishlangan tarixiy asarlar va turli rasmiy hujjatlarni tahlilga tortish orqali Qo‘qon xonligining eng kam o‘rganilgan qismi bir qator yangi materiallar, xususan, Umarxon, Fazliy Namangoniy, Mullo Olim Mushrif, Muhammad Hakimxon kabi muarrixlarning davlat boshqaruvi hamda tashqi aloqalariga doir boshqa mahalliy manbalarda uchramaydigan noyob ma’lumotlar bilan to‘ldirilgan;

yevropalik sayyoh, elchi, savdogar va boshqa mualliflarning o‘rta asrlarda O‘rta Osiyoda kechgan ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy-madaniy jarayonlarni nisbatan xolis yoritganligi, o‘zga din va madaniyat vakillari sifatida voqeliklarga “o‘zgacha bir nazar” bilan qarab baho berganliklari ko‘rsatib berilgan;

yevropalik mualliflarning so‘nggi o‘rta asrlardagi O‘rta Osiyo davlatlari tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlar boshqa tillarda yozilgan va biryoqlama yoritilgan ayrim masalalar ko‘rib chiqilib, xonliklarning diplomatiya bilan bog‘liq bir qator masalalarga aniqlik kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Qo‘qon xonligining XVIII–XIX asrlar tarixi va xalqaro munosabatlariga oid ma’lumotlar O‘zbekiston Milliy arxivi, Turkiya Respublikasi Usmonli arxivi hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar jamg‘armasi, Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi fondlari materiallari, sayyoh va elchilarning safar kundaliklaridagi ma’lumotlarni mavjud manbalarga qiyoslab tahlil etilganligi, “Туркестанские ведомости” va “Turkiston viloyatining gazeti” sahifalaridagi elchilikka oid maqolalar, shuningdek, tadqiqot ishi mavzusi bo‘yicha asosiy natijalar Respublika va xorijiy ilmiy nashr va konferensiyalarda muhokama qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiyaning **ilmiy ahamiyati** Qo‘qon xonligiga tashrif buyurgan, shu bilan birga, xonlikdan xorijiy mamlakatlarga yuborilgan elchilar, ularni kutib olish va kuzatish bilan bog‘liq jarayonlarga kompleks tarzda yondoshilganligi, shu asosda o‘zbek diplomatiyasi rivojiga Qo‘qon xonligi davrida munosib hissa qo‘shilganligi, mavjud an’analar davom ettirilganligi, mazkur sohadagi kelgusi tadqiqotlar uchun zarur manbaviy ma’lumotlarni taqdim etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining **amaliy ahamiyati** O‘zbekiston tarixining xonliklar davri, xususan, Qo‘qon xonligining siyosiy tarixi va diplomatiyasiga oid bilimlarni yanada boyitish, tarixshunoslik, manbashunoslikka doir tadqiqotlarda amaliy qo‘llanma vazifasini bajarish, shuningdek, bakalavr-tarixchi talabalar uchun “O‘zbekiston tarixi”, “Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi”, “O‘zbek davlatchiligi tarixi” fanlaridan o‘quv rejalar, darsliklar hamda kitoblar yaratish uchun xizmat qilishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mavzuni tadqiq qilish jarayonida erishilgan natijalar asosida:

Tadqiqot jarayonida XVIII asr boshlaridan Qo‘qon xonligi ichki va tashqi diplomatik aloqalarining institutsional asoslari har tomonlama ochib berishga harakat qilindi. Mavjud ilmiy adabiyotlarning aksariyatida Qo‘qon xonligida diplomatik etiket va muzokaralar olib borish qoidalari, umumiy qabul qilingan dalillardan farqli o‘laroq, ushbu ishda ko‘rib chiqilayotgan davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarning asosiy xususiyatlari, tabiati va mohiyati kabi ma’lumotlardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” telekanalida efirga uzatilgan “Tarixiy savol” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali davlat unitar korxonasining 2024-yil 26-dekabrdagi 01-44-559- son ma’lumotnomasi). Natijada, ko‘rsatuvni mazmunan boyitishga, tomoshabinlarga Qo‘qon xonligining

qo‘shni davlatlar bilan aloqalari, yevropalik sayyohlar va ularning asarlaridagi O‘rta Osiyo tarixiga doir ma’lumotlar bilan kengroq tanishish imkoniyatini oshirishga xizmat qilgan;

Qo‘qon xonligining qo‘shni davlatlar bilan siyosiy munosabatlari turli shakllarda, ya’ni oliy hukmdorlarning shaxsiy uchrashuvlari, elchixonalar almashinuvi, harbiy ittifoqlar, shuningdek, nikoh bitimlari orqali amalga oshirilganligi faktik materiallar asosida ko‘rsatilgan. Chodak xo‘jalari hamda “Oltin beshik” rivoyatining ana shu haqdagi ma’lumotlarni bayon etuvchi “Tarixi Turkiston” asari, Mushrif – Mirzo Qalandar Isfaragiyning mazkur rivoyat o‘z ifodasini topgan “Shohnomayi nusratpayom” asaridan olingan ma’lumotlar shular jumlasidandir. Shig‘ovul mansabining vazifalari bo‘yicha berilgan ma’lumotlar tahlil to‘g‘risidagi ma’lumotlardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” telekanali tomonidan efirga uzatilgan “Tarixiy savol” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda unumli foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston Teleradiokanali” davlat unitar korxonasining 2024-yil 26-dekabrdagi 01-44-559-son ma’lumotnomasi). Natijalarning amaliyotga joriy qilinishi ko‘rsatuvni mazmunan boyitish, tomoshabinlarga Chodak xo‘jalari hamda “Oltin beshik” rivoyatining ana shu haqdagi ma’lumotlarni bayon etuvchi “Tarixi Turkiston” asari, Mushrif – Mirzo Qalandar Isfaragiyning mazkur rivoyat o‘z ifodasini topgan “Shohnomayi nusratpayom” asariga doir ma’lumotlar bilan kengroq tanishish imkoniyatini bergan;

Qo‘qon xonligi diplomatiyasining tartib-qoidasi va etikasining o‘ziga xos jihatlari, ya’ni hududida xorijiy davlatlarning elchixonalari mavjud bo‘lmagan holda ham ziddiyatli yoki qo‘shni mamlakatlar bilan keng miqyosda elchilar almashinuvi yo‘lga qo‘yilganligi haqidagi ma’lumotlardan Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondi tomonidan tadqiqotning ilmiy xulosalaridan keng foydalanilgan (Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondining 2023-yil 16-avgustdagi 01-42/1-son ma’lumotnomasi). Natijada, Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondini mazmunan boyitish va yosh avlodlarga O‘rta Osiyo xonliklarini qo‘shni davlatlar bilan aloqalariga doir ma’lumotlar bilan kengroq tanishish imkoniyatini bergan;

Qo‘qon xonligida tashqi diplomatik munosabatlar mexanizmining shakllanishi va uning amaliy jihatlariga aniqlik kiritilib, xonlik davlat boshqaruvi hamda hokimiyat legitimatsiyasi masalasining ichki munosabat va tashqi aloqalarga bog‘liq jihatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlaridan Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondi tomonidan tadqiqotning ilmiy xulosalaridan unumli foydalanildi (Asos: Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondining 2023-yil 16-avgustdagi 01-42/1- son ma’lumotnomasi). Natijalarning amaliyotga joriy qilinishi Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondini mazmunan boyitib, xonlik davlat boshqaruvi va hokimiyat legitimatsiyasi masalasining ichki munosabat hamda tashqi aloqalarga bog‘liq jihatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarini boyitishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta ilmiy anjuman, jumladan, 1 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish e’lon qilingan. Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari (PhD)ning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, (ulardan 4 tasi Respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda), 11 tasi esa xalqaro va Respublika ilmiy-amaliy anjumanlar to‘plamlarida e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 147 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zaruriyati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ularning amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qo‘qon xonligi diplomatik aloqalarining manbashunosligi va tarixshunoslik tahlili”** deb nomlangan dastlabki bobida Qo‘qon xonligi davrida yaratilgan manbalar, ularning turlari hamda ushbu manbalar asosida tadqiqot olib borgan olimlarning izlanishlari xususida so‘z boradi. Mazkur bobning *birinchi paragrafida* Qo‘qon, Buxoro, Xiva tarixnavislik maktabida yaratilgan asarlar, diplomatik aloqalar haqida muhim ma’lumotlar beruvchi arxiv hujjatlari, Qo‘qonga tashrif buyurgan elchilarning xotiralari tahlil qilingan.

Qo‘qon xonligining xorijiy mamlakatlar bilan olib borgan o‘zaro elchilik aloqalarini tadqiq etishda birlamchi manbalar muhim o‘rin tutadi. Bunday turdagi manbalar ko‘lami anchayin keng bo‘lib, tadqiq etilayotgan mavzu yuzasidan nafaqat Qo‘qon, shu bilan birga, Xiva va Buxoro tarixchilarining asarlarida ham muhim ma’lumotlar keltirilgan.

Qo‘qon tarixnavislik maktabi vakillarining asarlari o‘zbek, tojik va arab tillarida yaratilgan bo‘lib, ular nazm, nasr, turli janrlarda doston, qissa, tarixiy adabiy asar hamda biografik tarixiy asar sifatida yuzaga kelgan[7]. Ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ushbu turdagi manbalar soni 40 dan ortiq ekanligi ta’kidlaydi. Ushbu manbalarda Qo‘qon xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotining turli jabhalari qatorida diplomatik munosabatlar elchilik etiketiga oid muhim ma’lumotlar ham o‘rin olgan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Qo‘qon tarixchilari tomonidan maxsus elchilik tartib-qoidalariga oid asar yozilmagan bo‘lsa-da, mavjud manbalarda elchilarni kutib olish, xonlikdan elchilikka tayinlangan shaxslar, qabul marosimlariga oid qaydlar mavjud.

Bunday toifadagi manbalar qatorida “Shohnomayi Umarxoniy” (Shohnomayi Nusratpayom) asarini alohida ta’kidlash o‘rinlidir. Ushbu asar muallifi Mirzo

[7] Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнавислик (генезиси, функциялари, намояндалари, асарлари). – Тошкент: Академнашр, 2010. – 130 б.

Qalandar Mushrif Isfaragiy bo‘lib, u Umarxon qo‘shinida qoziaskar vazifasini bajargan, xon ko‘rsatmasi bilan yuqoridagi asarni yozgan. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, u ushbu asarni Fazliy Namangoniyning “Umarnoma” asari asosida yaratgan. Muallif asarida o‘z davridagi xonlikning siyosiy hayoti va uning qo‘shni mamlakatlar bilan munosabatlarini yoritib o‘tadi. Ayniqsa, asarning Sankt-Peterburgda saqlanayotgan nusxasining asosiy matniga kirmay qolgan “Xorazm xoni Muhammad Rahimxonning Amiri sohibqiron saroyiga arznoma jo‘natgani va uning elchilari saroy ostonasini o‘pishga yetishgani bayonida” nomli bobi mazkur tadqiqot uchun ahamiyatlidir[8].

Ziyovuddin Ho‘qandiy tomonidan yozilgan “Farg‘ona xonlari tarixi” asari ham Xudoyorxon amri bilan yaratilgan bo‘lib, bugungi kungacha yagona nusxada saqlanib qolgan. Mazkur asar Turkiyaning Istanbul universiteti nodir asarlar kutubxonasi jamg‘armasida №2408 raqami ostida saqlanmoqda. Asarning bir qismi 2007-yilda qirg‘iz tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan[9]. Asarda Buxoro amiri Nasrullo tomonidan Muhammad Alixon huzuriga yuborilgan elchilik, shuningdek, Sheralixonning xonlik taxtiga chiqqan vaqtda amir tomonidan poytaxtni qamal qilinishi va qamaldagilar bilan olib borilgan elchilik aloqalari haqida boshqa manbalarda uchramaydigan ma’lumotlar mavjud[10]. Qolaversa, Xudoyorxonning qipchoqlar bilan olib borgan muzokaralarida Sobirxon to‘ra elchiligi, Mallaxon tomonidan Xudoyorxon huzuriga yuborilgan elchilikka oid qimmatli ma’lumotlar uchraydi.

Turkiya Respublikasi Prezidentligi huzuridagi Usmonli arxivi Turkiston tarixini tadqiq etishda muhim manbalar majmuasi hisoblanadi. Mazkur arxiv fondlarida Turkiston tarixiga oid 10 mingdan ortiq hujjatlar jamlangan. Ular orasida Qo‘qon xonligi va Usmonli imperiyasi o‘rtasidagi siyosiy, xususan, elchilik aloqalari, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni yorituvchi hujjatlar salmoqlidir.

Usmonli arxivida saqlanayotgan Turkiston tarixiga doir hujjatlar nafaqat arxiv muhitida, balki ilmiy nashrlar orqali ham ilmiy jamoatchilikka yetkazib kelinmoqda. Shu kungacha mazkur hujjatlar asosida uchta muhim nashr chop etilgan bo‘lib, ular Turkiston va Usmonli davlati o‘rtasidagi tarixiy aloqalarni tadqiq etishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Birinchi nashr – 2004-yilda Anqarada chop etilgan “Usmonli – Turkiston aloqalari hujjatlarda (XVI–XX asrlar)” nomli kitobdir[11]. Unda 76 ta hujjatning transkripsiyasi va faksimillari berilgan. Ushbu hujjatlar Usmonli imperiyasi hamda Turkiston xonliklari o‘rtasidagi siyosiy, diplomatik va savdo aloqalarini o‘rganishda katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. Xususan, ushbu hujjatlar to‘plamida Qo‘qon xonligi va Usmonli imperiyasi o‘rtasidagi siyosiy aloqalarga doir 13 ta hujjat mavjud. Ushbu to‘plamdagi Qo‘qon xonligi tarixiga doir hujjatlar Qo‘qon xonlari va Usmonli sultonlari o‘rtasidagi o‘zaro yozishmalar hamda ikki mamlakat

[8] Отахонов Ф. Қўқон ва Хива хонликлари ўртасида 1821 йилда тузилган ҳарбий иттифоқ ва унинг оқибатлари (“Шоҳномайи нусратпаём” маълумотлари таҳлили) // Ўзбекистон тарихи. – 2012. – №2. – Б. 25.
[9] Зиябидин Магзуни. Фаргана хандарынын тарыхы. – Бишкек: Турар, 2007.
[10] Yuqoridagi manba... – B. 124–125.
[11] Belgelerle Osmanli-Türkstan lskler (XVI–XX Yüzyıllar). – Ankara, 2005.

hukmdorlarining bir-biriga yuborgan sovg‘a-salomlar haqidagi hujjatlardan iboratdir.

Qo‘qon xonligining elchilik aloqalari tarixi, xususan, elchilarni kutib olish, joylashtirish va hukmdor qabulini tashkil etish tartib-qoidalari, shuningdek, turli yillarda xonlikka tashrif buyurgan hamda undan turli vaziyatlar sabab xorijiy mamlakatlarga yuborilgan elchilar haqida Qo‘qon tarixnavislik maktabi namoyondalari asarlari bilan bir qatorda Buxoro va Xiva tarixchilarining asarlari, elchi bo‘lib kelgan shaxslarning xotiralari, ming sulolasi hukmdorlarining xorijiy mamlakat hukmdorlari bilan yozishmalari hamda maktublar birlamchi manbalar majmuasini tashkil etadi.

Ushbu bobning *ikkinchi paragrafi* mavzuning tarixshunoslik tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, bunda xonlikning tashqi aloqalarini turli davrlarda, turli nuqtai nazar va mafkuraviy ta’sirlar doirasida o‘rgangan tadqiqotchilarning asarlari ko‘rib chiqilgan.

Qo‘qon xonligining diplomatik aloqalari va elchilik etiketi tarixini o‘rganish Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosati hamda xalqaro munosabatlari tarixini tadqiq etishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Xonlikning diplomatik aloqalari tarixiga oid ilmiy tadqiqotlar, ularni yaratilgan davr, metodologiyasi, manbalar bazasi, shu bilan birga tadqiq etilayotgan muammoga yondashuv jihatidan kelib chiqib, to‘rtta guruhga bo‘lish o‘rinlidir. Ushbu tasnif tarixshunoslik taraqqiyotining bosqichma-bosqich rivojlanishini kuzatish, har bir davrda mavzuning qay darajada o‘rganilganligini aniqlash, shuningdek, ilmiy qarashlar evolyutsiyasini yoritish imkonini beradi.

Birinchi guruhga mansub ishlarni asosan, Rossiya imperiyasining rasmiy nashrlarida e’lon qilingan maqolalar, xonlikka tashrif buyurgan elchi, sayyoh va harbiylarning esdaliklari tashkil etadi. Ushbu asarlarda Qo‘qon xonligining umumiy tavsifi, siyosiy holat, aholi turmush tarzi, shaharlar hayoti, iqtisodiy, masalalarga oid qaydlar qatorida diplomatik munosabatlari ham yoritib o‘tilgan. Xususan, P. N. Nebolsin asarlarida Qo‘qon xonligining ichki va tashqi savdo aloqalari, karvon yo‘llari qatorida ayrim elchilik munosabatlari haqida ham ma’lumotlar berilgan[12].

“Туркестанские ведомости” gazetasining 1872-yil 24-apreldagi 16- va 1872-yil 22- maydagi 20-sonlarida Turkiston general-gubernatorligidan Qo‘qon xonligiga yuborilgan B. Berg boshchiligidagi elchilik guruhi haqidagi ma’lumotlar nashr etilgan. Ushbu ikki maqolaning ahamiyatli jihati xonlikda elchilarni kutib olish va ular ishtirokidagi marosimlarning batafsil yoritilganligi bilan ahamiyatlidir. Rus elchisi B. Bergga tarjimon sifatida I. Ibrohimov hamrohlik qilib, u Qo‘qonga amalga oshirgan tashrifi davomida safar kundaligini yaratgan. Ushbu kundalikning ayrim qismlari yuqorida ta’kidlangan gazeta sahifalarida berilgan[13].

“Turkiston viloyatining gazeti”da ham xonlikning elchilik masalalariga oid bir qancha maqolalar e’lon qilingan. Jumladan, 1871-yil 15-yanvardagi №1, 1872-yil 13-yanvardagi №1, 1872-yil 31-yanvar №3, 1872-yil 13-fevral №4, 1872-yil

[12] Небольсин П. И. Очерки торговли России с Средней Азией / Зап. РГО. Кн. X. – СПб., 1855. – С. 1–355; Ўша муаллиф. Следование караванов из Бухары в Россию и обратно (Очерки торговли России со странами Средней Азии, Хивой, Бухарой и Кокандом). – СПб., 1856. – 376 с.

[13] Русское посольства в Кокань // Туркестансия ведомости. – 1872 г. 24-апрель. – №16.

20-mart №6, 1872-yil 21-aprel №9, 1872-yil 19-oktabr №20, 1872-yil 15-dekabr №23, 1872-yil 31-dekabr №24, 1873-yil 27-aprel №6, 1873-yil 2-oktabr №19, 1874-yil 29-mart №6, 1874-yil 31-may №10, 1874-yil 31-iyul №10, 1874-yil 17-oktabr №19, 1875-yil 16-iyun №15, 1875-yil 27-iyun №16 sonlarida Qo‘qondan elchi tariqasida Turkiston general-gubernatorligi va Rossiya imperiyasining poytaxtiga yuborilgan, shuningdek, ushbu hududlardan Qo‘qonga kelgan elchilar xususida ta’kidlab o‘tilgan. Gazeta sahifalarida Astruviy, Sarimsoqxo‘ja Eshon Sadur, Mirzo Hakim parvonachi, Berx, Sarimsoq eshik og‘a kabi elchilik vazifasini bajargan shaxslar hamda ularga tarjimonlik qilgan Shohmardon Ibrohimov, Mirzo Kozimbek Obiddin o‘g‘li haqida ma’lumotlar berilgan.

Ikkinchi guruhga mansub adabiyotlarni sovet davrida amalga oshirilgan tadqiqotlar tashkil qiladi. Ta’kidlash o‘rinliki, bu davr tadqiqotlarini sovet mafkurasi doirasida tadqiqot ishlarini olib borishga majbur bo‘lishgan. Bu o‘rinda asosiy e’tibor Qo‘qon xonligining Rossiya bilan munosabatlariga ko‘proq e’tibor qaratilgan. Qo‘qon – Rossiya diplomatik munosabatlarini ham shu mafkura nuqtai nazaridan yoritishgan.

Ushbu davrga oid asarlar orasida R. N. Nabiyev tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarni ta’kidlash o‘rinlidir. Xususan, muallifning “Из истории Кокандского ханства (Феодальное хозяйство Худаяр-хана)” nomli asarida Qo‘qon xonligining elchilik aloqalariga oid ma’lumotlar mavjud. Asardan Umarxon hukmronligining dastlabki yillarida Buxoroga borgan To‘ra xo‘ja boshchiligidagi elchilik, 1853-yilda Xudoyorxonning Rossiya imperatoriga maktub va qimmatbaho sovg‘alar bilan o‘z elchisini yuborishiga oid tafsilotlari, 1865-yilda kosonlik Bahodirxon to‘rani to‘qqiz xil qimmatbaho sovg‘alar bilan Buxoro amiri huzuriga yuborilishi, Qo‘qon xonligining Turkiston general-gubernatorligidagi doimiy vakili Mirzo Hakim Parvonachi haqidagi ma’lumotlar o‘rin olgan[14].

Xonlik tarixini tadqiq etishga doir uchinchi guruh adabiyotlarini mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar qamrab oladi. Mustaqillik yillarida Vatan tarixini milliy davlatchilik tamoyillari asosida qayta baholash jarayonida Turkiston xonliklari davri, jumladan, Qo‘qon xonligi tarixi yangi ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganila boshladi. Mazkur jarayonda xonlikning siyosiy tarixi, davlat boshqaruvi, iqtisodiy hayoti, ijtimoiy-madaniy, sohalari bilan bir qatorda tashqi siyosat, xususan, diplomatik munosabatlar masalasiga ham alohida e’tibor qaratila boshladi. Ayniqsa, Qo‘qon xonligining qo‘shni Buxoro amirligi, Xiva xonligi va xorijiy mamlakatlar bilan olib borgan elchilik aloqalari, elchilarning huquqiy maqomi, moddiy ta’minoti, xavfsizligi, qabul marosimlari kabi jihatlar o‘rganila boshlandi. Shu munosabat bilan Respublika va xorijiy mamlakatlarda saqlanayotgan arxiv hujjatlari Qo‘qon, Buxoro, Xiva tarixchilarining asarlari, elchilarning xotira qaydnomalari asosida xonlik diplomatiyasiga oid yangi ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi. Bu esa Qo‘qon xonligining tashqi diplomatik aloqalari elchilik institutini o‘zbek milliy diplomatiyasi tarixining muhim bosqichlaridan biri sifatida har tomonlama tadqiq etish imkoniyatini kengaytirdi.

Bu borada amalga oshirilgan tadqiqotlar orasida Sh. H. Vohidov, H. N. Bobobekov, G. A. Agzamova, Sh. Y. Mahmudov, Sh. T. Qo‘ldoshev, O‘. A. Sultonov, B. Bobojonov, V. Ishquvatov, D. Sangirova, T. Xudoyqulov,

[14] Набиев Р. Из истории Кокандского ханства (Феодальное хозяйство Худаяр-хана). – Ташкент: Фан, 1973. – С. 7, 49–59, 70–80.

X. G. G‘ulomov, Z. Ilhomov, Z. Sh. Madrahimov, N. R. Topildiyev, M.Ahmedova, Z. B. Rahmonqulova, H. Boltaboyev, N. Allayeva, F. Otaxonov, N.T. Polvonov, D. Ahmedova, A. Erkinov, O. Jo‘raboyev, R. Abdullayev, J.Yakobjanov va D. Mirzayevlarning ilmiy izlanishlari[15]ni ko‘rsatish mumkin.

---

[15] Воҳидов Ш. Ҳ. Қўқон хонлигида тарихнавислик (генезиси, функциялари, намояндалари, асарлари). – Тошкент: Академнашр, 2010. – 317 б.; O‘sha muallif: Қўқон хонлиги тарихи (хонлик тарихи – манбаларда). – Тошкент: 2014. – 1493 б.; O‘sha muallif: Шоҳ ва шоир Мадалихон // Фан ва турмуш. – 1998. – №5. – Б. 24–25; Бабабеков Х. Н. Историческая литература о Кокандском ханстве (Руская литература 60–70 годах XIX в.) Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1970; O‘sha muallif: Қўқон тарихи. – Тошкент: Фан, 1996. – 238 б.; Агзамова Г. А. Среднеазиатские центры торговли и пути, связывающие их с Россией: Дисс. … канд. ист. наук. – Ташкент, 1990; O‘sha muallif: Ўрта Осиё хонликларида ҳунармандчилик ва савдо: Тарих фан. д-ри ... дисс. – Тошкент: 2000. – 348 б.; O‘sha muallif: Ўзбекистон шаҳарлари XVI–XIX асрнинг ўрталарида. – Тошкент, 2017. – 225 б.; Mahmudov Sh. Y. Qo‘qon xonligining diplomatik aloqalari (1709–1876): Tarix fan. d-ri (DSc) ... diss. – Toshkent, 2025. – 210 b.; O‘sha muallif: Қўқон хонлигида Шиғовул институти / Қўқон хонлигининг туркий халқлар давлатчилиги ва маданий меросини ривожлантиришдаги ўрни. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Қўқон, 2022. – Б. 44; O‘sha muallif: Қўқон хонлигининг дипломатик алоқалари (1709–1876). Монография. – Тошкент: Фан, 2025. – 264 б.; O‘sha muallif: Қуръони карим – элларни боғлаб турувчи мустаҳкам қудратли восита // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – 2010. – №2. – Б. 85–87; O‘sha muallif: Қўқон хонлигининг дипломатик алоқаларида ҳадяларнинг тутган ўрни // Тошкент ислом университети илмий таҳлилий ахбороти. – 2011. – №1. – Б. 4–6; O‘sha muallif: Муҳаммад Халил Соҳибзода ва унинг элчилик фаолияти // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – 2011. – №2. – Б. 137–139; O‘sha muallif: “Усмонли архиви”даги икки мактуб: Саййид Ёқубхон тўра бошчилигидаги дипломатик миссия хусусида // Meros. – 2019. – №1. – Б. 57–63; O‘sha muallif: Khoqand and India: The Role of Ulema in Diplomatic Relations // International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – № 10. – Pp. 267–275; Қўлдошев Ш. Т. Қўқон хонлиги ва Шарқий Туркистон ўртасидаги сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқалар (XVIII–XIX асрнинг ўрталари): Тарих фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 177 б.; O‘sha muallif: Хитой манбаларида Қўқон хонлиги тарихини ёритилиши / Қўқон хонлигининг туркий халқлар давлатчилиги ва маданий меросини ривожлантиришдаги ўрни. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Қўқон, 2022. – Б. 55–63; O‘sha muallif: Қўқон хонлиги ва Хитой (Чин империяси) ўртасидаги дипломатик муносабатлар. – Тошкент: ТошДШИ, 2019. – 240 б.; Султонов Ў. А. Муҳаммад Солиҳхўжа ва унинг “Тарихи жадидаи Тошканд” асари –Тошкент, 2009; O‘sha muallif: Biz bilmagan “Qo‘qon xoni”: Shohruxxon ibn Muhammad Alixonning hukmronligi masalasiga doir // İnsan ve Toplum Bilimleri Araştırmaları Dergisi, 9 (4), 2020. – S. 78–90; Бабаджанов Б. Кокандское ханства: власть, политика, религия. – Ташкент; Токио: Янги нашр, 2010; Ишқуватов В. Т. XX асрнинг II ярми тарихшунослигида Қўқон Россия дипломатик муносабатлари: Тарих фан. номз... дисс. – Тошкент, 2003; O‘sha muallif: Қўқон – Россия дипломатик муносабатлари тарихшунослиги. – Тошкент, 2009. – 152 б.; Сангирова Д. “Тарихи Азизий” – чор мустамлакачилиги даврига оид муҳим тарихий манба: Тарих фан. номз.... дисс. – Тошкент, 2000; Худайкулов Т. XIX асрда Қўқон хонлигининг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти: Тарих фан. номз.... дисс. – Тошкент, 2009. – 172 б.; Гуломов Х. Дипломатические отношения государств Средней Азии с Россией в XVIII – первой половине XIX века). – Тошкент: Фан, 2005. – 333 с.; Илҳомов З. Алиқули Амирлашкар ва унинг Қўқон хонлиги сиёсий тарихида тутган ўрни: Тарих фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004; Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари: Тарих фан. номз.... дисс. – Наманган, 2009. – 188 б.; Топилдиев Н. Р. Қўқон хонлигининг Россия билан дипломатик алоқалари тарихида (XIX аср – 1876 йилгача). – Тошкент: Фан, 2007. – 127 б.; Аҳмедова М. Т. Қўқон хонлигининг ташкил топиши, давлат тизими ва ҳуқуқ манбалари: Тарих фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2010. – 158 б.; Раҳмонқулова З. Б. XVI–XX аср бошларида Ўрта Осиё ва Усмонийлар давлатлари ўртасидаги ижтимоий-сиёсий ва маданий муносабатлар тарихи: Тарих фан. номз.... дисс. – Тошкент, 2002. – 139 б.; Болтабоев Ҳ. Амир Умархоннинг мактуби // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси. – 1997 йил 24 октябрь. – №43; Аллаева Н. К вопросу посольского церемониала в среднеазиатских ханствах: Основные этапы и правила этикета / Марказий Осиё тарихи – замонавий медиавистика талқинида. – Тошкент, 2011. – С. 174–186; O‘sha muallif: Хива хонлигининг дипломатияси ва савдо алоқалари (XVI–XIX асрлар). – Тошкент: Академнашр, 2019. – 496 б.; Отахонов Ф. Қўқон ва Хива хонликлари ўртасида 1821 йилда тузилган ҳарбий иттифоқ ва унинг оқибатлари (“Шоҳномайи нусратпаём” маълумотлари таҳлили) // O‘zbekiston tarixi. – 2012. – №2. – Б. 24–34; Полвонов Н. Қўқон ва Хива хонликларининг ўзаро элчилик алоқалари тарихига доир (XIX аср) / Ўзбекистонда элчилик хизмати тарихидан: талқин ва таҳлил. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. – Тошкент, 2017. – Б. 176–188; Ahmedova D. Ming – Mang‘it – Qo‘ng‘irot sulolalarining rasmiy yozishmalari tarixiy manba sifatida: Tarix fan. bo‘y. fals. dok. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2025. – 156 b.; Эркинов А. Ноёб қўлёзма изидан // Мозийдан садо. – 2009. – № 4. – Б. 20–22; Жўрабоев О. “Хазойин-ул-маоний”нинг бир шоҳона қўлёзмаси ва унинг матний хусусиятлари // Адабиёт кўзгуси. – 2011. – №12. – Б. 10–17; O‘sha muallif: Матннинг матн ости сирлари. – Тошкент: Tamaddun, 2017. – 200 б.; Abdullayev R. Qo‘qon xonligida kitobat ishi va kutubxonalar tarixi. Toshkent: Dimal,

Ushbu tadqiqotlarda xonlikning qo‘shni Buxoro amirligi va Xiva xonligi, Rossiya imperiyasi, Chin imperiyasi, Usmoniylar davlati, Hindiston, Afg‘oniston va Eron bilan o‘zaro aloqalari o‘rganilgan bo‘lib, ular orasida Sh. Y. Mahmudov hamda Sh. T. Qo‘ldoshevlarning tadqiqotlari bevosita Qo‘qon xonligining elchilik tizimi, diplomatik munosabatlarni o‘rganishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Xususan, Sh. Y. Mahmudov tadqiqotlarida Qo‘qon xonligining diplomatik aloqalar tarixi Qo‘qon manbalari bilan birgalikda Buxoro va Xorazm, Hindiston, Rus manbalari, shuningdek, O‘zbekiston, Turkiya, Rossiya, Angliya, Hindiston arxivlarida saqlanayotgan hujjatlar asosida o‘rganilganligi bilan qimmatli sanaladi[16].

Sh. Qo‘ldoshev esa Xitoy manbalari asosida Qo‘qon – Xitoy munosabatlarini o‘rgangan bo‘lsa[17], D. Ahmedova tadqiqotlarida esa Ming sulolasining Mang‘itlar va Qo‘ng‘irotlar bilan o‘zaro yozishmalari Qo‘qon, Buxoro va Xiva tarixchilarining asarlari hamda hukmdorlarning maktublari orqali tahlil etilgan[18].

Qo‘qon xonligining tashqi siyosiy aloqalari tarixi nafaqat O‘zbekiston, shu bilan bir qatorda xorijiy davlatlarning olimlari tomonidan ham izchil o‘rganib kelinmoqda. Ular tomonidan yaratilgan asarlar adabiyotlarning to‘rtinchi guruhini tashkil qiladi. Ushbu xorijiy tadqiqotchilarning asarlarida asosiy e’tibor xonlikning diplomatik etikasi va tartib-qoidalariga maxsus bag‘ishlanmagan bo‘lsa-da, bu masalaning ayrim jihatlari ushbu asarlarda o‘z aksini topgan.

Qozoq olimi T. Beysembiyev tadqiqotlarida Qo‘qon xonligi tarixnavislik maktabi namoyondalarining asarlarini o‘rganish bilan birga elchilik aloqalari, xususan, xonlikda ushbu sohaga bevosita mas’ul bo‘lgan shig‘ovul mansabi haqida ma’lumotlar beradi[19]. Tojikistonlik muallif B. Tursunovning Qo‘qon xonligining siyosiy tarixiga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsining oltinchi bobi xonlikning xorijiy davlatlar bilan diplomatik aloqalariga bag‘ishlangan. Bunda muallif Qo‘qon xonligi va Rossiya imperiyasi, Xitoy bilan elchilik aloqalari, Sharq mamlakatlari bilan o‘zaro munosabatlarini yoritgan[20].

Dissertatsiyaning **“Qo‘qon xonligi tashqi diplomatik aloqalarining institutsional asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida xonlik tashqi aloqalarining yuzaga kelishi, elchilik institutining shakllanish jarayonlari yoritib berilgan. Ushbu bobning *birinchi paragrafida* xonlik elchilik aloqalarini olib borgan davlatlar, xorijiy mamlakatlardan kelgan elchilarning qabul qilish tartib-qoidalari, qabul marosimlari haqida so‘z boradi.

Qo‘qon xonligining (1709–1876) tashqi siyosati, ayniqsa, Xitoy, Usmonli turklar, Rossiya imperiyasi, Hindiston, Afg‘oniston va unga qo‘shni bo‘lgan

---

2025. – 222 b.; Yokubjonov J. O‘zbekistonning zamonaviy tadqiqotlarida Qo‘qon xonligi davlatchiligi masalasi (tarixshunoslik tahlili): Tarix fan. b. fals. dok. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2023 – 131 b.; Mirzayev D. “Turkiston viloyatining gazeti” – Turkiston siyosiy tarixi bo‘yicha manba: Tarix fan. bo‘y. fals. dok. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2025. – 149 b.

[16] Mahmudov Sh. Y. Qo‘qon xonligining diplomatik aloqalari (1709–1876). Tarix fan. d-ri (DSc)... diss. avtoref. – Toshkent, 2025. – 32 b.

[17] Қўлдошев Ш. Т. Қўқон хонлиги ва Хитой (Чин империяси) ўртасидаги дипломатик муносабатлар. – Тошкент: ТошДШИ, 2019. – 240 б.

[18] Ahmedova D. Ming – Mang‘it – Qo‘ng‘irot sulolalarining rasmiy yozishmalari tarixiy manba sifatida: Tarix fan. bo‘y. fals. dok. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2025. – 156 b.

[19] Бейсембиёв Т. К. Кокандская историография: Исследование по источниковедению Средней Азии XVIII–XIX веков. – Алматы: Print-S, 2009. – С. 47–55, 169–170.

[20] Турсунов Б. История политической жизни Кокандского ханства. (с 1709 г. до первой половины 50-х годов XIX в.) Дисс. ... д-ра ист. наук. – Худжанд, 2022. – С. 280–326.

Buxoro amirligi hamda Xiva xonligi bilan bo‘lgan aloqalarida elchilik tizimi muhim rol o‘ynagan. Xususan, Qo‘qon xonligidan Xitoyga yuborilgan elchilarning soni 70 dan ortiq bo‘lib, ular asosan, imperiyaning poytaxti Pekin yoki Sharqiy Turkistondagi Manjur hukmdorlarining rasmiy vakillari huzuriga yuborilgan.

Qo‘qon xonligi uchun Usmonli turklar davlati ham tashqi siyosatning muhim markazi bo‘lgan. Xususan, Umarxon (1810–1822), Muhammad Alixon (1822–1842), Xudoyorxon birinchi davr (1845–1858), Mallaxon (1858–1862) kabi hukmdorlar Usmoniylar davlati bilan ma’naviy va harbiy yordam olish maqsadida doimiy ravishda elchilar yuborib turgan. XIX asrning boshlariga kelib, Turkistonda geosiyosiy vaziyatning murakkablashishi, Qo‘qon xonligiga 3 tarafdan xavfning yuzaga kelishi, Umarxonni bunga qarshi kuchli ittifoqchilarni izlashga undagan edi. Bu borada Qo‘qon xoni eng kuchli ittifoqchi sifatida Usmoniylar davlatini ko‘rgan[21].

Qo‘qon xonligining elchilik munosabatlari tarixida qo‘shni Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan olib borgan aloqalari muhim o‘rin egallaydi. Qo‘qon hukmdorlari xonlik tashkil topgan ilk davrlardanoq ushbu davlat bilan o‘zaro elchilik aloqalarni olib borganlar. Ushbu davlatlar bilan munosabatlari mintaqaviy siyosiy raqobat, chegaraviy nizolar, savdo iqtisodiy manfaatlar hamda hukmdorlarning O‘rta Osiyoda yetakchilikka bo‘lgan raqobatlari kabi omillar bilan belgilanadi. Ammo bir jihatni ham unutmaslik kerakki, ular o‘rtasidagi munosabatlar har doim ham bir xil kechmagan, ayrim davrlarda diplomatik yaqinlashuv, harbiy ittifoqlar, madaniy aloqalar, savdo munosabatlari rivojlangan bo‘lsa, ba’zan chegaraviy nizolar, harbiy yurishlar va siyosiy raqobat, ular o‘rtasidagi munosabatlarga sovuqlik solib turgan.

Qo‘qon xonligida elchilarni qabul qilish bo‘yicha maxsus uch qismdan iborat marosim shakllangan edi. Buni Qo‘qon xonligiga 1813-yilda kelgan Fillip Nazarov xotiralari orqali bilishimiz mumkin. Jumladan, Fillip Nazarovning Qo‘qon xoni Umarxon bilan uchrashuvining birinchi qismi hukmdor huzuriga kirish hamda rus imperatori maktubini topshirish, shuningdek, so‘zlashuv jarayoni bilan yakunlangan, ikkinchi qismda esa o‘zi bilan olib kelgan sovg‘alarni topshirishdan iborat bo‘lgan. So‘nggi uchinchi qismda esa ziyofat dasturxoni tashkil etilgan[22].

Ushbu bobning *ikkinchi paragrafi* xonlikda diplomatik etiketning shakllanishi hamda muzokaralar olib borish qoidalari yoritilgan bo‘lib, bunda bevosita xonlika tashrif buyurgan elchilarning xotiralari asosida mazkur jarayonlar tahlil etilgan.

Davlatlarda (jumladan, o‘zbek xonliklarida) diplomatik etiket va elchilik xizmatlarining dastlabki vazifasi elchilarni kutib olish hamda ularning xavfsizligini ta’minlashdan iborat bo‘lgan. Chegarada turgan amaldorlar mamlakat hududiga kirib kelayotgan har bir kishi haqida suvoriy yoki chopar orqali ma’lumot berib turishlari zarur bo‘lgan. Agar kelayotgan kishi elchi bo‘lsa, unga obro‘li bir kishini yo‘ldosh qilib, tegishli shaharga yuborishgan. Bu yerda elchini boshqa kishilarga topshirib, yangi obod shaharlar va qishloqlarni ko‘rsatib, elchi uchun ajratilgan maxsus joyga joylashtirilgan. Xususan, Umarxon davrida Qo‘qon shahrida xorijiy elchilar uchun maxsus qarorgoh mavjud bo‘lganligini 1813-yilda ushbu

[21] Mahmudov Sh. Qo‘qon xonligining diplomatik aloqalari (1709–1876): Tarix fan. d-ri (DSc) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2025. – B. 27.

[22] Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – СПб., 1821. – С. 53–56.

qarorgohda bo‘lgan Fillip Nazarov xotiralaridan bilish mumkin[23]. Ushbu qarorgoh xorijiy elchilar uchun mehmonxona sifatida foydalanilgan va maxsus qo‘riqlangan. Ushbu masalani tadqiq etgan Sh. Mahmudovning ko‘rsatishicha, bu davrda mazkur holat Turkiston xonliklarida kuzatilmaydi. Xorijiy elchilar ko‘proq hukmdorning saroyiga joylashtirilgan yoki biror mansabdor obro‘li shaxsning uyidan ular uchun joy ajratilgan[24].

1829-yilda Muhammad Alixon davrida xonlikka tashrif buyurgan N.Potaninni xonlikda shakllangan diplomatik qoidalarga ko‘ra shahardan taxminan uch verst uzoqlikda o‘nga yaqin amaldorlar kutib oladi. Elchi Qo‘qon shahridagi Toshkent hokimining uyiga joylashtiriladi. Ular uchun uchta yaxshi va ancha keng xonalar ajratilib, biri elchi Potaninga, qolgan ikkitasi esa hamrohlariga beriladi. Ularning xavfsizligi uchun qorovullar guruhi ham tayinlanadi. Shuningdek, iste’mol uchun oziq-ovqatlar har kuni 1 ta qo‘y, 15ta non, yangi va quritilgan mevalar, uzumdan tayyorlangan sharob, otlar uchun esa yem-xashaklar ajratiladi[25].

Qo‘qon xonlarining elchilarni qabul qilish marosimi O‘rdaning salomxona, ya’ni xonning davlat amaldorlari, oliy martabali mehmonlarni qabul qilish xonasida uyishtirilgan. 1865–1873-yillarda Xudoyorxon tomonidan qurib bitkazilgan xon O‘rdasida joylashgan salomxona bugungi kungacha saqlanib qolgan bo‘lib, ular katta va kichik salomxonalarga bo‘lingan. Tarixchilar bunday xonalarni “Huzuru Muborak” yoki “Ko‘rinishxona” deb ham ataganlar[26]. Salomxonalar xon o‘rdasida joylashgan boshqa xonalarga qaraganda hashamatliligi va ichki bezaklarining yorqinligi bilan ajralib turgan. Albatta, bu bejiz emas edi, chunki xon qabulida bo‘lgan xorijiy elchilarda Qo‘qon davlatining iqtisodiy qudrati haqida salomxona ma’lum darajada tasavvur uyg‘otishga xizmat qilgan bo‘lishi mumkin.

Ikkinchi bobning *so‘nggi paragrafi* xonlik davlat boshqaruvi hamda hokimiyat legitimatsiyasining ichki va tashqi aloqalarga bog‘liqlik jihatlariga bag‘ishlangan.

Qo‘qon xonligi davlat boshqaruv tizimida xuddi Buxoro va Xiva xonliklarida bo‘lgani kabi, ko‘chmanchi dasht xalqlari tartib-qoidalari bilan mahalliy o‘troq hududlarda shakllangan davlatchilik an’analarining o‘zaro uyg‘unlashganligini kuzatish mumkin. Qo‘qon xonligida davlat hokimiyatining dastlabki bosqichlarida oliy hukmdorlar “biy” unvoni bilan tanilgan. Biroq, 1805-yildan boshlab Olimxon davrida bu unvon “xon” sifatida rasmiylashdi va hukmdorlik maqomi yuqoriroq siyosiy darajaga ko‘tarildi. Keyinchalik, uning ukasi Umarxon nafaqat dunyoviy, balki diniy hokimiyatni ham o‘z qo‘liga olgan holda, o‘zini “amir al-muslimin” (musulmonlar amiri) deb e’lon qildi. Bu esa xonlikda diniy va siyosiy hokimiyatning uyg‘unlashganligini ko‘rsatadi. Qo‘qon xonligi sulolaviy legitimatsiyasining asosiy nazariy tayanchi sifatida “Oltin beshik” rivoyati va unga tayanilgan genealogik tamoyillar alohida o‘rinni egallaydi. Bunday holat xonlikning siyosiy-iqtisodiy poydevorini mustahkamlashga xizmat qilgan bo‘lib, hukmronlikka da’vogarlikni ilohiy va tarixiy asoslar bilan oqlashga urinish sifatida namoyon bo‘ladi. Jumladan, Sh. Vohidov ushbu rivoyatning manbaviy ildizlarini

[23] Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – СПб., 1821. – С. 38.
[24] Mahmudov Sh. Qo‘qon xonligining diplomatik aloqalari (1709–1876)... – B. 19.
[25] Потанин. Записки о Кокандского ханства. – 1830 – С. 221–222.
[26] Otakhonov F. Hokand Hanlığı Merkez Teşkilatı. Doktora tezi. – Istanbul: Ağustos, 2023 – B. 126.

“Tarixi Turkiston” asarida berilgan tafsilotlarga tayanib tahlil qiladi va Qo‘qon xonlari o‘z nasablarini “Oltin beshik” avlodlariga bog‘lashga harakat qilganliklarini asosli dalillar bilan tasdiqlaydi. Unga ko‘ra, Shohruxxonning xonlikka ko‘tarilishi ham aynan ana shu genealogik asosni siyosiy maqomga aylantirish jarayonida ro‘y bergan.

Davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni yo‘lga qo‘yish borasida Qo‘qon xonligida elchilik instituti ham vujudga kelib, bunda asosiy omil vazifasini xonlikning tashqi siyosati o‘taydi. Xonlikning elchilik institutining shakllanib borishi diplomatiya bilan bog‘liq turli vazifalar, ularga mutasaddi lavozimlar va mansablar, ular egalarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vujudga keltirdi. Shuningdek, uning xizmat vazifalari doirasiga, diplomatik maktublar va hadyalar tayyorlash, xorijiy elchilarni kutib olish bilan bog‘liq an’ana va marosimlarni o‘tkazish kirgan[27] – deyiladi. Xonlikda shig‘ovul lavozimining aynan qaysi hukmdor davrida joriy etilgani masalasida turli ilmiy mulohazalar mavjud. Jumladan, ayrim tadqiqotlarda davlat tashkil topgan dastlabki yillarda mazkur lavozim mavjud bo‘lmagani qayd etiladi.

Umarxon hukmronligiga qadar Qo‘qon xonligida davlat boshqaruvi Buxoro amirligi boshqaruv tizimiga o‘xshash bo‘lganligini hisobga olinsa, keyinchalik bu tizimni Umarxon 1815-yilda qayta isloh qiladi. Ushbu ma’lumotdan xulosa qilib shuni qayd etish mumkinki, davlat boshqaruvida davlatchilikka xos an’analardan biri muayyan bir davlatga kelayotgan xorijiy elchilarni kutib olish uchun yuqori mavqega ega bo‘lgan mansabdorni mas’ul etib tayinlashga alohida e’tibor qaratilgan. Bundan Qo‘qon xonligi ham mustasno emas edi. Hattoki, 1830-yilda Qo‘qon xonligida bo‘lgan Potanin esdaliklarida shig‘ovul haqida quyidagicha ma’lumot qoldiradi: “...ular chet mamlakatlardan Qo‘qonga kelgan elchilarni xonlik hududidagi faoliyati va eson-omon o‘z vatanlariga qaytishlari uchun xon oldida javobgardir”[28].

Qo‘qonga elchi bo‘lib kelgan F. Nazarov ham uni kutib olgan mansabdorni Umarxon qabuliga kirgunga qadar bir necha ma’lumotlarga aniqlik kiritishga harakat qilganini o‘z esdaliklarida bayon etadi. F. Nazarov ushbu mansab egasini aynan tashqi ishlarga mas’ul shaxs deb e’tirof etmasa-da, ushbu ma’lumotdan boshqa davlatlardan keladigan yoki xorijiy davlatlarga yuboriladigan elchilarga mas’ul shaxs hamda davlatning tashqi ishlari bilan bog‘liq masalalarga mutasaddi kutib olganligini anglash mumkin. Ushbu mansab egasining Qo‘qon xonligidagi vazirlardan biri deb hisoblasa ham bo‘ladi. Fikrimizcha, *shig‘ovul* mansabidagi shaxsni F. Nazarov bilan muloqotda bo‘lganligi uchun muallif uni vazir deb qayd etgan bo‘lishi mumkin. Shuningdek, elchi Qo‘qonning bosh vaziri bilan uchrashganligini ham alohida qayd etadi.

Dissertatsiyaning so‘nggi uchinchi bobi **“Qo‘qon xonligida tashqi aloqalar dinamikasi – o‘zaro an’analar va munosabatlarda yuz bergan o‘zgarishlar”** deb nomlanib, uning *birinchi paragrafida* xonlikning qo‘shni Buxoro hamda Xiva xonliklari bilan o‘zaro aloqalariga bag‘ishlangan.

---

[27] Маҳмудов Ш. Ю. Қўқон хонлигида шиғовул институти / Қўқон хонлигининг туркий халқлар давлатчилиги ва маданий меросини ривожлантиришдаги ўрни. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Қўқон, 2022. – Б. 41.

[28] Потанин Р. Н. Записки о Кокандском ханстве. – СПб, 1830. – Б. 279; Маҳмудов Ш. Ю. Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими (1709–1876 йй.): Тарих фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – Б. 82.

Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligi o‘rtasidagi munosabatlar asosan, siyosiy ziddiyatlar bilan kechgan. Shunga qaramay, ikki davlat o‘rtasida kam hollarda bo‘lsa-da, o‘zaro diplomatik aloqalar, jumladan, elchilar almashinuvi kabi holatlar ham kuzatilgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, ayrim siyosiy maqsadlarni ko‘zlab, hukmdorlar vaqtincha ittifoqlar tuzishga ham urinib ko‘rgan. Xususan, Abdurahimbiy davrida O‘ratepaga harbiy harakatlar uyushtirib, Samarqand va Kattaqo‘rg‘ongacha bo‘lgan hududlar egallagan vaziyatda Muhammad Hakimbiy (vafoti 1743-yil) tomonidan Abdurahimbiyga g‘alaba tabrigi va xonliklar o‘rtasida hududlar masalasida sulh maktubi sanaladi. 1731-yilda tuzilgan ushbu shartnomaga ko‘ra, Samarqand, Kattaqo‘rg‘on va Jizzax hududlari Qo‘qon xonligi tarkibiga kiritilishi belgilangan[29].

Ba’zan tashqi siyosiy omillar Qo‘qon Buxoro munosabatlarida itifoqchilikni yuzaga keltirar edi. Xususan, XVIII asrning 40-yillarida Eron hukmdori Nodirshohning Turkiston xonliklariga amalga oshirgan harbiy harakatlari mintaqa xonliklarini umumiy dushmanga qarshi kurashish masalasini muhokama qilishni talab qilgan. Jumladan, Abdulkarimxon tomonidan Buxoro va Xiva xonlarining Eron bosqiniga qarshi kurashish harakatlari qo‘llab-quvvatlangan bo‘lsa-da, Qo‘qon xonligidagi siyosiy vaziyat ushbu ittifoqqa qo‘shilishga imkon qoldirmagan[30].

Qo‘qon xoni Olimxon davriga kelib, Qo‘qon Buxoro munosabatlari yangi bosqichga ko‘tarildi. Har ikki sulola vakillari islom dinini haqiqiy himoyachisi bo‘lishi uchun da’vogarlik qilib, Usmoniylar davlati bilan elchilik aloqalarini yo‘lga qo‘yishga harakat qilgan[31]. Olimxon va Umarxon davrida Qo‘qon xonligi mavqei mustahkamlanib, Buxoro amirligi tarkibidagi Xo‘jand, Toshkent, O‘ratepa hamda Jizzax hududlarini egallab olishi ikki o‘rtada munosabatlarni keskinlashtirgan. Umarxon hukmronligining dastlabki yillarida ushbu ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy qarama-qarshiliklar nisbatan yumshagan.

Qo‘qon va Xiva xonliklari o‘rtasidagi munosabatlar Buxoro bilan bo‘lgan aloqalarga nisbatan ancha iliq bo‘lgan, bunday holatni XIX asrda ikkala xonlikda yaratilgan tarixiy manbalar orqali kuzatish mumkin. Qo‘qon xonligida yaratilgan Mirzo Qalandar Mushrifning “Shoxnomayi Umarxoniy” asarida 1821-yilning may oyida Qo‘qon hukmdori Umarxon saroyiga Xiva xoni Muhammad Rahimxon I (1806–1825) nomidan rasmiy maktub bilan kelgan elchilik va uning oqibatlari xususida so‘z yuritiladi[32]. Ushbu asarda Xiva xonining elchisi tomonidan yuborilgan rasmiy maktubda Qo‘qon va Xiva xonliklari o‘rtasidagi diplomatik aloqalar, ikki davlatning o‘zaro siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini muvofiqlashtirishga qaratilgan urinishlar yoritilgan. Maktubda Xiva xonining Qo‘qon xoni Umarxon bilan o‘zaro do‘stona munosabatlar o‘rnatishga intilishi, shuningdek, Qo‘qon xonligining mustaqil siyosatini himoya qilishdagi maqsadlari keltirilgan. Shuningdek, elchilikning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi va uning ikki tomonlama aloqalarini qanday ta’sir qilgani haqida batafsil ma’lumot berilgan.

---

[29] Ahmedova D. Ming – Mang‘it – Qo‘ng‘irot sulolalarining rasmiy yozishmalari tarixiy manba sifatida... – B. 50.
[30] Yuqoridagi asar... – B. 51.
[31] Кюгелюген А. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв.). – Алматы: Дайк-Пресс, 2004. – С. 24.
[32] Mirzo Qalandar Mushrif Isfaragiy. Shohnomayi Umarxoniy. – Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi Sharqshunoslik va yozma meros markazi, qo‘lyozma, № 10088, 132a -varaq.

Uchinchi bobning *keyingi paragraflarida* Qo‘qon xonligining Rossiya imperiyasi va Usmonli turklar davlati bilan o‘zaro munosabatlari aks etgan. Qo‘qon xonligining Rossiya imperiyasi bilan o‘zaro munosabatlari tarixi nisbatan keng o‘rganilgan ilmiy yo‘nalish hisoblanadi[33]. Ammo, bunday ishlar asosan, Rossiya va Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni o‘rganishga hamda ko‘p hollarda ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarda manfaatli tomonni aniqlashga qaratilgan. Shuningdek, ushbu tadqiqotlarning aksariyati sovet davrida amalga oshirilgan ilmiy ishlar bo‘lib, keltirilgan qimmatli faktologik materiallarga qaramasdan, ularda mafkuraviy ta’sir mavjud va masalaga O‘zbekiston davlatchiligi hamda diplomatik institutlar nuqtai nazaridan yondashilmagan.

Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyo xonliklari bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatishdagi dastlabki tashabbuskor davlat sifatida aynan o‘zi manfaatdor tomon bo‘lgan. Ushbu aloqalar jarayonida yuzaga kelgan murakkabliklar, ayniqsa, diplomatik odob-axloq (elchilik etikasi) me’yorlariga asoslangan holda tartibga solingan.

Muhammad Alixon hukmronligi davrida Qo‘qon xonligining Buxoro amirligi bilan munosabatlari eng keskin va murakkab nuqtaga yetdi. Ushbu vaziyatga qarshi muvozanat yaratish maqsadida Muhammad Alixon Rossiya bilan aloqalarni mustahkamlashga harakat qildi. Shu maqsadda Rus hukmdoriga maktub yo‘llab, eshon Muhammad xo‘ja Xalil Sohibsozodani elchi tariqasida yuboradi. Ushbu elchilik orqali Makkaga haj safariga borayotgan xonlik aholisining Rossiya hududlari orqali o‘tishiga ruxsat berilishi Sibirda faoliyat ko‘rsatayotgan qo‘qonlik va toshkentlik savdogarlarga homiylik ko‘rsatilishi va boshqa masalalar ham ko‘rsatilgan[34].

Xudoyorxon davriga kelib, Rossiya imperiyasi bilan munosabatlarni yaxshilashga urinadi. Xususan, Qo‘qonda qipchoqlar ta’siri tugatilganligi xon hokimiyati mustahkam ekanligini yetkazish maqsadida 1853-yilda rus imperatoriga maktub va sovg‘alar bilan elchi yuboradi. Ushbu elchilikdan ko‘zlangan maqsad rus bosqinining oldini olishga qaratilgan edi, ammo bu harakatlar ijobiy natija bermadi[35].

Rossiya imperiyasi tomonidan Qo‘qon xonligiga qarashli hududlar birin-ketin ishg‘ol etilishi 1865-yilga kelib esa Toshkentning bosib olinishi natijasida Xudoyorxonning to‘g‘ridan to‘g‘ri Rossiyaga elchi yubora olmasligiga olib keldi. Qolaversa, Turkiston general gubernatorligining tashkil topishi va keng vakolatlar berilishi xonlikning Rossiya imperatori bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri elchilar almashinuvini cheklab qo‘ydi.

Qo‘qon xonlari uchun Istanbul, ya’ni Usmonli imperiyasi tashqi siyosatning muhim markazlaridan biri hisoblangan. Bir tomondan, Usmonli sultonlari Qo‘qon

---

[33] Попов А. Сношения России с Бухарой и Хивой при Петре Великом // Записки ИРГО. Вып. 9. – СПб., 1853. – С. 237–424; Небольсин П. И. Очерки торговли России со странами Средней Азии: Хивой, Бухарой и Коканом // Записки Русского географического общества. Т. X. – СПб., 1856; Залесов Н. Посольство в Хиву подполковника Данилевского в 1842 г. // Военный сборник. – 1861. – №11. – С. 41–75; Муҳаммаджонов А. Бухоро ва Хиванинг Россия билан алоқаларига доир. – Тошкент, 1957; Ханыков Я. В. Поездка Поспелова и Бурнашева в Тошкент в 1800 году // Вестник Императорского Русского географического общества на 1851 год. Ч. I. Кн. 1: География историческая. Т. VI. – 1851. – С. 5, 20; Сборник материалов для истории завоевания Туркестанского края / Собрал полк. А.Г. Серебренников. Т. 3: 1841 год. – Ташкент, 1912. – С. 35.

[34] Kamalova Z. Hüdayar han döneminde hokand hanliği (1845–1875) Doktora tezi. – Istanbul – 2019. – B. 136.

[35] Набиев Р. Из истории Кокандского ханства. (Феодальное хозяйство Худаярхана). – Ташкент: Фан, 1973. – С. 49.

xonlarini moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlab kelgan bo‘lsa, ikkinchidan, Qo‘qon davlatining rasmiy elchilari hamda maxsus vakolatlarga ega bo‘lgan emissarlari mintaqada yuzaga kelgan siyosiy vaziyatlar haqida sulton saroyiga yozma hamda og‘zaki shaklda muntazam tarzda axborot yetkazib turganlar. Mazkur xabarlarning salmoqli qismi fors tilida yozilganligi kuzatiladi. Markaziy Osiyoda sodir bo‘layotgan voqealar haqida Istanbulga ko‘pincha Bombay (Hindiston) yoki Tehron (Eron) shaharlaridagi Usmonli imperiyasining diplomatik vakillari orqali ma’lumot yetkazilgan.

Bugungi kunda Qo‘qon xonligining Usmonli imperiyasi bilan diplomatik aloqalariga doir eng muhim arxiv materiallarining bir qismi Turkiyaning Istanbul shahridagi Boshboqonlik Usmonli arxivida saqlanmoqda[36]. Shuningdek, turkiyalik tarixchilarining fikriga ko‘ra, Qo‘qon bilan aloqalar to‘g‘risidagi hujjatlar (arxiv ma’lumotlari) chuqur ma’lumotga ega emas. Chunki, ularning asosini elchilarning imperiya hududida bo‘lganligi to‘g‘risidagi moliyaviy hujjatlarni tashkil etadi, deb ma’lumot beradi[37].

Qo‘qon xonligining Turkiya bilan aloqalari yuzasidan arxiv ma’lumotlariga tayangan holda qayd etish mumkinki, ikki o‘rtadagi munosabat Umarxon davridan boshlangan. 1819-yilda Usmoniylar sultoniga yuborilgan maktubda Qo‘qon xonligiga nisbatan yuzaga kelayotgan tashqi xavflarga urg‘u beriladi. Hujjatda asosan quyidagi 4 ta siyosiy masala ko‘tarilgan edi:

1. Chin imperiyasining Koshg‘arni egallagani;
2. Koshg‘ar masalasida Buxoro amirining Qo‘qonga nisbatan siyosiy bosimi;
3. Rossiya imperiyasining Qo‘qonning shimoliy chegarasida harbiy qal’alarni barpo eta boshlagani;
4. Qo‘qon hukmdoriga ma’naviy dastak kerakligi qayd etiladi. Ushbu 4 ta masala aks etgan maktub Umarxonning Markaziy Osiyodagi vaziyatni to‘g‘ri anglagani hamda bu masalada uning siyosiy pozitsiyasini namoyon etadi[38].

Qo‘qon xonligi va Usmonli turklar o‘rtasidagi munosabatlar to‘g‘risida Muhammad Yunus Toibning “Tarixi Aliquli Amirlashkar”[39] asarida ham eslatilgan. Asarda ma’lumot berishicha, Qo‘qon xonligida Rossiya imperiyasining bosqinchilik tajovuzi tobora tahdidli tus olayotgan 1864-yil boshlarida uning maslahati bilan Aliquli Amirlashkar bir qator mamlakatlarga elchilar yuboradi. Ulardan ko‘zlangan asosiy maqsad – Rossiya imperiyasiga qarshi kurashda yakkalanib qolgan Qo‘qon xonligiga harbiy-siyosiy ittifoqchilar topish edi.

Ushbu bobning *so‘nggi paragrafi* Qo‘qon xonligi tashqi siyosatida muhim o‘rin tutuvchi Sharqiy Turkiston masalasida Xitoy bilan kechgan diplomatik aloqalar masalasiga bag‘ishlangan.

Qo‘qon xonligi va Sharqiy Turkiston o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning shakllanishiga mavjud tarixiy vaziyatlar sabab bo‘lgan deyish mumkin. Xususan, XVII asr va XVIII asr o‘rtalariga qadar Sharqiy Turkiston hududida ikki xonlik – Yorkend xonligi (1465–1759) va Jung‘or xonligi (1636–1758)ga bo‘lingan edi. Lekin, ushbu davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro kurashlar

[36] Boshboqonlik Usmonli arxiv materiallari ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik aloqalarni tadqiq etishda muhim manba hisoblanadi. Uning fondlarida o‘zaro munosabatlarga oid 190 dan ortiq hujjatlar mavjud.
[37] Васильев А. Д. Знамя и меч от падишаха. Политические и культурные контакты ханств Центральной Азии и Османской империи (середина XVI – начало XX вв.). – Москва, 2014. – С. 180.
[38] Mahmudov Sh. Y. Qo‘qon xonligining diplomatik aloqalari (1709–1876)... – B. 27.
[39] Муҳаммад Юнус Тоиб. Тарихи Аликули Амирилашкар // Шарқ юлдузи. – 1998. – №2. – Б. 214–223.

natijasida 1692-yildan Yorkend xonligi Jung‘or xonligining vassaliga aylanadi. Shuningdek, ikki davlatning ichki nizolaridan Xitoy hukumati foydalanib, 1758–1759-yillar davomida butun Sharqiy Turkistonni bosib olgan edi. Ushbu o‘lkada manjurlar hukumati Yorkend va Jung‘or xonliklari mustaqilligiga barham berib, uning o‘rniga xitoycha “Sintszyan” (Shinjyang), ya’ni “Yangi o‘lka” deb ataluvchi noiblik tashkil etiladi. Bu vaqtda Yorkend xonligi hukmdorlarining vorislari bo‘lgan xo‘jalar O‘rta Osiyo, jumladan, Qo‘qon xonligi (1709–1876)dan boshpana topgan edilar. Ular Sharqiy Turkistonda o‘z hokimiyatlarini qayta tiklash maqsadida Qo‘qon xonligi aholisini ham jalb etadi[40].

Qo‘qon xonligini Xitoy hukumati bilan diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘yishda ayrim siyosiy jarayonlar ham sabab bo‘lgan, desak, bu to‘g‘ri bo‘ladi. Buxoro xonligidan mustaqil bo‘lib chiqqan Qo‘qon xonligi vaqt o‘tishi bilan siyosiy va iqtisodiy imkoniyatlari oshib borar ekan, qo‘shni Buxoro va Xiva xonliklari tomonidan davlat sifatida tan olinadi.

XULOSA

Qo‘qon xonligi diplomatiyasining tartib-qoidasi va etikasi tarixiga oid manbalardagi ma’lumotlarni qiyosiy o‘rganish quyidagi **xulosalar**ni ilgari surishga imkon berdi:

1. Qo‘qon xonligi tashqi diplomatik munosabatlar mexanizmining shakllanishida mahalliy hukmdorlarning qo‘shni davlat hukumatlari bilan tashqi siyosat olib borishda xonlik manfaatlaridan kelib chiqib harakat qilganligini ko‘rish mumkin. Ular hatto, o‘z manfaati yo‘lida ayrim davlatlardagi siyosiy jarayonlarga ham aralashib, avval kelishilgan majburiyatlaridan ko‘z yumgan holatlar ham tez-tez sodir bo‘lib turgan. Har bir Qo‘qon hukmdori siyosiy vaziyat hamda iqtisodiy jarayonlardan kelib chiqib, shuningdek, qo‘shni amirlik, Rossiya va Angliya kabi imperiyalardan himoyalanish uchun Usmonli turklar bilan yaqinlashishga harakat qilganligi, lekin ko‘p hollarda masalani o‘z foydasiga hal qilishga erishmoqchi bo‘lganligi manbalarda keltirilgan. Biroq, bunday muzokaralarda Usmonli turklar ham siyosiy ehtiyotkorlik yo‘lini tutib vaziyatga qarab ish tutgan edi.

2. Xonlikda kechgan turli siyosiy jarayonlar elchilik munosabatlari va unga munosib nomzod tayinlash masalasiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Xususan, tinchlik yillarida ma’lum bir davlatga yuborilayotgan elchilikka nomzodlar oldindan puxta tayyorgarligi bilan bu borada ma’lum bir tajriba ortirgan shaxslarga yuklatilgan bo‘lsa, ayrim vaziyatlarda shoshilinch ravishda saroyning ba’zi amaldorlari ham bunday mas’uliyatli vazifani bajarishga to‘g‘ri kelgan.

3. XVIII–XIX asrlarda O‘rta Osiyoning qudratli davlati bo‘lgan Qo‘qon xonligi mintaqaning murakkab geosiyosiy manzarasida hal qiluvchi rol o‘ynay boshladi. Uning kuchayib borayotgan imperatorlik kuchi bo‘lgan Rossiya bilan o‘zaro munosabatlari taxminiy ittifoqlardan tortib to to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘qnashuvlargacha bo‘lgan bir qator siyosiy-diplomatik munosabatlar bilan yakunlandi. Ushbu munosabatlarni tushunish uchun mavjud manbalarni

[40] Искандаров С. Қўқон хонлиги билан Шарқий Туркистон ўртасидаги ижтимоий-сиёсий муносабатларнинг шаклланиш жараёни ва тараққиёти // Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. Innovative Academy Research Support Center. UIF = 8.2 | SJIF = 6.051. Vol. 3, Issue 6, June 2023. ISSN 2181-2888. – Б. 54.

sinchkovlik bilan o‘rganish talab etiladi. Ularning diqqat markazida tarafkashlik va ishonchlilikda sezilarli darajada farqlanadi. Ushbu tadqiqot turli manbalarda topilgan ma’lumotlarni qiyosiy tadqiq qilish, ularning Qo‘qon – Rossiya, Qo‘qon – Usmonli turklar, Qo‘qon va o‘zbek xonliklari hamda boshqa davlatlar bilan o‘zaro munosabatlari tarixini qayta o‘rganishning kuchli va zaif tomonlarini ko‘rsatishga qaratilgan. Jumladan:

a) Qo‘qon xonligi arxivi. Ushbu turkumga xonlikning o‘zida shakllangan rasmiy hujjatlar, davlat boshqaruviga oid yozishmalar, qaydlar hamda boshqa turdagi hujjatli materiallar kiradi. Ta’kidlash o‘rinliki, Qo‘qon xonligi tarixida yuz bergan murakkab siyosiy jarayonlar, ichki notinchliklar va ayniqsa, Rossiya imperiyasi istilosi oqibatida Qo‘qon xonligi arxiv hujjatlarining katta qismi yo‘qolgan yoki turli hududlarga tarqalib ketgan. Hozirgi kungacha saqlanib qolgan hujjatlar esa mazmunan asosan xonlikning ma’muriy boshqaruvi, xo‘jalik munosabatlari va ijtimoiy hayotiga oid ma’lumotlarni qamrab oladi, Shu sababli mazkur arxiv materiallarida Qo‘qon xonligining tashqi siyosati va diplomatik munosabatlarini yaxlit holda yorituvchi hujjatlar nisbatan kam uchraydi. Shunga qaramay, ayrim hujjatlar tarkibida xorijiy davlatlar bilan yozishmalar, elchilik aloqalari, savdo-diplomatik munosabatlar hamda tashqi siyosiy masalalarga doir muhim ma’lumotlar mavjud. Xususan, saqlanib qolgan Qo‘qon xonligi arxiv hujjatlari miqdoran cheklangan va mavzu jihatidan notekis bo‘lishiga qaramay, xonlikning tashqi aloqalari tarixini boshqa yozma manbalar bilan qiyosiy tahlil asosida o‘rganishda muhim birlamchi manbalar majmuini tashkil etadi;

b) Rossiya arxiv materiallari. Ushbu arxivlarda O‘rta Osiyoga oid juda ko‘p diplomatik yozishmalar, hisobotlar va harbiy hujjatlar to‘plami mavjud. Ushbu hujjatlar Qo‘qonga nisbatan Rossiya nuqtai nazari haqida tushuncha beradi, ammo ularning imperiya manfaatlariga e’tibor qaratishlari voqealarga faqat rus nigohi bilan qaramaslik uchun tanqidiy yondashuvni talab qiladi.

d) Zamonaviy tarixiy asarlar va xotiralar Qo‘qon xonligining qo‘shni hamda xorijiy davlatlar bilan munosabatlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu manbalarda diplomatik jarayonlarning bevosita ishtirokchilari yoki zamondoshlari tomonidan voqea-hodisalar yoritilganligi sababli ular davrning siyosiy muhitini hamda ayrim tarixiy shaxslarning qarash va faoliyatini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mazkur manbalarning ilmiy qimmati muallifning xolisligi, maqsadi va foydalanilgan ma’lumotlarning ishonchlilik darajasini inobatga olgan holda baholanishi kerak;

e) Qo‘qon manbalari xonlikning ichki siyosiy hayoti, davlat boshqaruvi va tashqi aloqalarini tadqiq etishda muhim manba sifatida e’tirof etiladi. Biroq, ular mualliflik pozitsiyasi va siyosiy-mafkuraviy omillar ta’sirida yaratilganligi bois ayrim voqea-hodisalar Qo‘qon xonligi manfaatlari nuqtai nazaridan talqin etilgan.

4. Qo‘qon xonligining diplomatik aloqalariga oid rasmiy hujjatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qo‘shni va xorijiy davlatlar bilan diplomatik munosabatlarni yo‘lga qo‘yishdan ko‘zlangan asosiy maqsad avvalo, siyosiy manfaatlarni ta’minlashdan iborat bo‘lgan. Shundan so‘ng savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish hamda mahalliy boshqaruv bilan bog‘liq masalalarni hal etish muhim yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lgan.

5. Qo‘qon xonligidagi saroy va milliy tarixchilari o‘z asarlarida mamlakatning qo‘shni hamda uzoq davlatlar bilan olib borilgan turli sohalardagi aloqalar,

xususan, Usmonli turk va Rossiya imperiyasi bilan olib borilgan elchilik munosabatlari keng yoritganlar. Bulardan Umarxon davrida Rossiyaga Shakurbek otaliq boshchiligidagi elchilar va Rossiya imperiyasi tomonidan F. Nazarovning Qo‘qonga kelishi, bunday diplomatik missiyalar faoliyati va natijalari Qo‘qon – Rossiya aloqalari tarixida muhim o‘rin tutadi. Qo‘qon xonligining Rossiya imperiyasi bilan olib borgan aloqalarining asosini siyosiy, iqtisodiy, madaniy va harbiy sohalarda tashkil qilingan bo‘lib, uning birinchi bosqichi savdo-sotiq hamda elchilik munosabatlaridan iborat edi.

6. Qo‘qon xonligi bilan Xitoy hukumati o‘rtasidagi munosabatlar siyosiy aloqalarni amalga oshirishda elchilik almashinuvidan keng foydalanilgan. Bu ko‘pincha Qo‘qon hukmdorlari va Xitoy hukumati imperatorlari o‘rtasidagi elchiliklar hamda rasmiy maktublar ko‘rinishida, Qo‘qon hukmdorlari bilan Sharqiy Turkistondagi Xitoy noiblari hisoblangan vakillar o‘rtasidagi yozishmalar, Sharqiy Turkistondagi mahalliy hokimliklar bilan Qo‘qon xonlarning yozishmalari holatida, Qo‘qon xonlari tomonidan Sharqiy Turkistondagi Qo‘qon oqsoqoliga yuborilgan yorliqlar asosida yoki Sharqiy Turkistondagi Qo‘qon oqsoqoli, Xitoy noiblari va mahalliy hokimbegilar o‘rtasidagi munosabatlar va shu kabilarda kuzatiladi.

Shuningdek, ularning katta qismida markaziy masala – xo‘jalar bilan bog‘liq bo‘lib, Erdonabiy va Norbo‘tabiy davrida imzolangan bitimlar ushbu diniy toifadan maxfiy ravishda tuzilgan. Ushbu bitimni Olimxon va Umarxon qayta tasdiqlaganligi tarixiy manbalarda ma’lum.

7. Qo‘qon xonligi tashkil topgan ilk paytlaridanoq avvalo, qo‘shni mamlakatlar, XIX asr boshlaridan esa dunyoning yirik davlatlari bilan diplomatik aloqalarni izchil yo‘lga qo‘yib bordi. Tashqi siyosiy munosabatlarning kengayishi natijasida xonlikda elchilik institutining tashkiliy hamda marosimiy jihatlari ham bosqichma-bosqich takomillashdi. Elchilarni kutib olish, ularning xavfsizligi va ta’minoti, qabul marosimlari, muzokaralar olib borish an’analari hamda diplomatik protokolning tarkibiy unsurlari davlat boshqaruv tizimining muhim qismiga aylandi.

Ushbu tadqiqotda bir nechta manbalardan foydalanish, ularning noto‘g‘riligini tan olish va bunday muhim tarixiy munosabatlarni har tomonlama tushunishga intilish muhimligini qiyosiy tahlil qilingan. Ammo, tadqiqot davomida ularning amaldagi faoliyatlarini tahlil qilinganda, ular faqatgina savdo ishlari bilan mashg‘ul bo‘lmasdan, ijtimoiy-siyosiy, diniy masalalar bilan ham shug‘ullanganligini ayon bo‘ldi.

8. Xorijlik sayohatchilar, diplomatlar va elchilarning Qo‘qon xonligiga oid safarnomalari, diplomatik yozishmalari hamda hisobotlari xonlikning tashqi siyosati va xalqaro diplomatik aloqalarini o‘rganishda muhim tarixiy manbalar hisoblanadi. Mazkur manbalarda Qo‘qon xonligining xorijiy davlatlar bilan elchilik munosabatlari, diplomatik vakillarning tashriflari, elchilar almashinuvi, muzokaralar jarayoni, siyosiy kelishuvlar hamda o‘zaro diplomatik manfaatlar bilan bog‘liq masalalar yoritilgan. Ayniqsa, xorijiy vakillarning shaxsiy kuzatuvlari va rasmiy hisobotlari orqali Qo‘qon xonligining diplomatik protokoli, tashqi siyosiy ustuvor yo‘nalishlari va xalqaro munosabatlardagi mavqeyini aniqlash

imkoniyati yuzaga keladi. Shu bilan birga, ushbu manbalardagi ma’lumotlarni mualliflarning siyosiy manfaatlari, subyektiv qarashlari va axborot olish imkoniyatlarini inobatga olgan holda tanqidiy tahlil qilish talab etiladi. Shu bois xorijiy diplomatik manbalarni Qo‘qon xonligi saroy hujjatlari, mahalliy tarixiy asarlar va boshqa yozma manbalar bilan qiyosiy o‘rganish elchilik munosabatlarining mazmuni, rivojlanish xususiyatlari hamda xonlik tashqi siyosatidagi o‘rnini ilmiy jihatdan xolis baholashga xizmat qiladi.

9. Qo‘qon xonligi tarixshunosligida xonlikning tashqi aloqalari va diplomatik munosabatlariga doir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqotlarda, asosan, Qo‘qon xonligining xorijiy davlatlar bilan siyosiy va diplomatik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi, elchilik almashinuvi hamda tashqi siyosiy munosabatlarning geografik doirasi yoritilgan. Biroq mavjud tarixshunoslik tahlili shuni ko‘rsatadiki, xonlikda elchilik faoliyatini tashkil etish mexanizmlari, diplomatik etika tamoyillari, elchilarni qabul qilish va kuzatish marosimlari, muzokaralar olib borish tartibi, diplomatik protokol hamda elchilik munosabatlarini tartibga soluvchi urf-odat va qoidalar yaxlit tizim sifatida yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu jihatdan, Qo‘qon xonligida elchilik etikasi va diplomatik tartib-qoidalar tizimining shakllanishi, amaliyotda qo‘llanilishi hamda tashqi siyosiy munosabatlardagi o‘rnini tarixiy manbalar asosida kompleks tadqiq etish mazkur yo‘nalishdagi tarixshunoslikning muhim ilmiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Qilingan xulosalar va qo‘yilgan masalani tadqiq etish jarayonidagi mulohazalar asosida quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Qo‘qon xonligining Buxoro va Xiva xonliklari munosabatlariga oid tarixiy tushunchani shakllantirishda og‘zaki ma’lumotlar hamda mahalliy rivoyatlarning rolini o‘rganish.

2. Qo‘qon xonligi va Turkiyaning an’anaviy ma’muriy boshqaruv tizimini qiyosiy o‘rganish ishlarini olib borish.

3. Qo‘qon xonligi tarixi va uning qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro munosabatlariga zamonaviy geosiyosiy voqealarning ta’sirini tahlil qilish.

4. Turkiya, Xitoy, Rossiya va boshqa davlatlar arxiv hujjatlari, qo‘lyozma manbalar ma’lumotlari asosida Qo‘qon xonligi tashqi diplomatik aloqalariga doir xrestomatiya yaratish.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.Tar.11.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

АБДУРАХМОНОВ ЗУХРИДДИН ХОЛДОРАЛИ УГЛИ

ИСТОРИЯ ДИПЛОМАТИЧЕСКОГО ПРОТОКОЛА И ЭТИКИ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА

07.00.01 – История Узбекистана

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ИСТОРИЧЕСКИМ наукам

Карши – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан под номером B2023.1.(PhD)/Tar1286.

Диссертация выполнена в Каршинском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-странице Каршинского государственного университета (www.qarshidu.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Бердиев Жамшид Панжиевич** доктор исторических наук (DSc), и.о. профессора
Официальные оппоненты:	**Худайкулов Тулкин Дустбобоевич** доктор исторических наук (DSc), профессор
	Матякубова Муборак Мадримовна доктор исторических наук (DSc), профессор
Ведущая организация:	**Кокандский государственный университет**

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.Tar.11.01 при Каршинском государственном университете по присуждению ученых степеней доктора философии (PhD) по историческим наукам 7 декабря 2026 года в 11:00 часов. (Адрес: 180119, г. Карши, улица Кучабог, 17-дом. Тел.: (+998 75) 221-21-04, факс: (+998 75) 220-02-10, e-mail: kasu_info@edu.uz). Каршинский государственный университет.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного университета (зарегистрирован под номером 594). (Адрес: 180119, г. Карши, улица Кучабог, 17-дом. Тел.: (+998 75) 221-21-04).

Автореферат диссертации разослан в 21 ноября 2026 года.
(реестр протокола рассылки № 50 от 21 ноября 2026 года).

Б. Ж. Эшов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, профессор

Н. Н. Ражабова
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, кандидат исторических наук, доцент.

Ф. Ш. Рахмонов
Председатель Научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Современные процессы глобализации, происходящие в мире, обусловливают необходимость сохранения каждым народом национальной идентичности и исторически сложившихся традиций государственности, а также определения перспектив и ориентиров дальнейшего развития. В этих условиях особую научную значимость приобретает комплексное и глубокое изучение истории узбекской государственности, сыгравшей значимую роль в историческом развитии и характеризующейся богатым духовным и культурным наследием, а также многовековыми традициями государственного строительства.

Процессы глобализации в мировом сообществе непосредственно связаны с историческими истоками межрегиональных связей. Центральноазиатский регион, являясь пространством пересечения различных культур, а также политических и экономических интересов, занимает особое место в мировой истории. Территории, входившие в состав Бухарского, Хивинского и Кокандского ханств, представляли собой одни из древнейших очагов цивилизации, внесших значительный вклад в развитие общечеловеческих ценностей, а их историческое развитие протекало в тесной взаимосвязи с историей народов мира. Это свидетельствует о значимой роли данного региона в формировании и развитии древних цивилизаций.

История Центральной Азии, в частности различные аспекты политической, социально-экономической и культурной жизни Кокандского ханства, существовавшего в XVIII–XIX веках, включая историю дипломатических и посольских отношений, продолжает изучаться в ведущих научных центрах мира. В настоящее время исследователями осуществляется научное изучение отдельных документов и дипломатической корреспонденции, связанных с внешнеполитическими и посольскими связями ханства, хранящихся в различных архивных фондах России, Османской империи, Китая, Индии и других государств, с которыми Кокандское ханство поддерживало дипломатические отношения. Вместе с тем вопросы дипломатического протокола, посольского этикета и порядка осуществления дипломатических церемоний в Кокандском ханстве до настоящего времени не получили достаточного освещения в научной литературе. В связи с этим исследование истории кокандской дипломатии, в том числе порядка приёма иностранных послов, прибывавших в ханство, и особенностей посольского этикета, приобретает особую актуальность с учётом геополитических изменений, происходивших в регионе. В данном контексте комплексное изучение дипломатического протокола и этики Кокандского ханства представляет собой актуальное направление исторического исследования.

В настоящее время, в условиях активного развития Республикой Узбекистан широкомасштабного сотрудничества с ведущими государствами мира и выхода её внешних связей с мировым сообществом на новый качественный уровень, особое внимание уделяется углублённому изучению

истории международных отношений. Это обусловлено тем, что «наша национальная государственность имеет многотысячелетнюю историю и богатое культурное наследие. Соответственно, дипломатические отношения также уходят своими истоками в глубинные пласты нашей истории. Данный факт получил широкое признание не только в нашей стране, но и среди учёных всего мира»[1]. Диссертационная работа направлена на реализацию в определённой степени задач, предусмотренных Законом Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции внешнеполитической деятельности Республики Узбекистан», Указами Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О Стратегии «Узбекистан – 2030» и от 19 мая 2017 года № УП-5046 «О мерах по дальнейшему совершенствованию межнациональных отношений и дружественных связей с зарубежными странами», Постановлением Президента Республики Узбекистан от 10 февраля 2022 года № ПП-126 «О дополнительных мерах по совершенствованию системы сохранения и исследования древних письменных источников», а также иными нормативно-правовыми документами, регулирующими соответствующую сферу.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Диссертационная работа выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Формирование систем социального, правового, культурного и духовно-просветительского развития информационного общества и демократического государства, разработка экономических инновационных идей и путей их реализации».

Степень изученности проблемы. Комплексного исследования истории дипломатических отношений Кокандского ханства с соседними государствами – Бухарским эмиратом, Хивинским ханством, Российской империей, Османской империей, империей Цин в Китае, Афганистаном и Индией – с акцентом на дипломатический протокол и этикет ханства до настоящего времени не проводилось. Вместе с тем отдельные аспекты данной проблематики нашли отражение в ряде научных трудов и исследований. В историографическом плане имеющиеся научные работы целесообразно разделить на четыре группы: к первой относятся труды, созданные в период господства Российской империи; ко второй – исследования советского периода; к третьей – работы, опубликованные в период независимости; четвёртую группу составляют зарубежные научные исследования.

Первую группу историографических источников составляют преимущественно труды российских путешественников, дипломатов, военных деятелей и учёных. В этих работах наряду со сведениями о социально-экономической и культурной жизни Кокандского ханства содержатся материалы, освещающие его внешнеполитические связи и

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tashqi ishlar vazirligi va mamlakatimizning xorijiy davlatlardagi elchixonalari faoliyatiga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqi // https://president.uz/uz/lists/view/1423 (Murojaat qilingan sana. 05. 06. 2025).

дипломатические отношения[2].

Вторую группу составляют научные труды, созданные в советский период. В рамках данного направления представляется целесообразным отдельно рассмотреть ряд исследований, имеющих существенное значение для изучения рассматриваемой проблематики. В частности, в работах О.Аминова, Х. Зиёева, Р. Набиева, Ф. Гаффорова, А. Хамраева, А. Мухторова и А. Хасанова освещаются вопросы, связанные с экономическими, торговыми и дипломатическими отношениями Кокандского ханства[3].

Третью группу составляют научные труды, опубликованные в период независимости Республики Узбекистан. После обретения независимости перед историками открылись широкие возможности для объективного и всестороннего изучения отечественной истории. Существенно расширилась источниковая база исследований, в том числе появилась возможность обращения к достоверным первоисточникам по истории ханств. В частности, введение в научный оборот более 40 письменных источников, созданных кокандскими историками, в которых наряду с различными аспектами истории ханства нашли отражение сведения о его дипломатических отношениях, получило дальнейшее развитие в исследованиях последующего периода.

Четвёртую группу составляют исследования зарубежных авторов, представленные преимущественно трудами казахстанских[4], таджикских[5] и турецких[6] ученых.

---

[2] Небольсин П. И. Очерки торговли России с Средней Азией / Зап. РГО. Кн. Х. – СПб., 1855. – С. 1–355; Тот же автор: Следование караванов из Бухары в Россию и обратно (Очерки торговли России со странами Средней Азии, Хивой, Бухарой и Кокандом). – СПб., 1856. С. – 376.; Хорошхин А. П. Очерки Коканда / Туркестанский сборник. Т. 116. – СПб., 1876. – С. 170–195; Тот же автор: Сборник статей касающихся Туркестанского края. – СПб., 1876. – С. 533.; Федченко А. Из Кокана. Сведения о путешествии по Коканскому ханству / Известия ИРГО. Том VIII. – 1870. – С. 6–20; Тот же автор: Из Кокана / Ежегодникъ. Материалы для статистики Туркестанскаго края / Под. ред. Н. А. Маева. – СПб., 1873. – С. 387–404; Тот же автор: В Кокандском ханстве. – СПб., 1875. – С. 160.; Ибрагимов И. Пять дней в Кокане // Туркестанские ведомости. – 1872. – №20.

[3] Аминов О. XVI–XIX асрларда Ўрта Осиё – Россия. – Тошкент, 1958; Зиёев Ҳ. Ўрта Осиё ва Сибирь (XVI–XIX асрлар). – Тошкент: Фан, 1962. – 340 б.; Тот же автор: Туркистонда Россия тажовузи ва унга қарши кураш. – Тошкент, 1998. – 480 б.; Набиев Р. Из истории Кокандского ханства (Феодальное хозяйство Худоярхана). – Ташкент: Фан, 1973. – С. 388.; Ғаффоров Ф. Россия билан Қўқон хонлиги ўртасидаги иқтисодий ва сиёсий алоқалар. Тар. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1970; Хамраев М. Очерки истории Хисарского бекства конца XIX и начало XX вв. – Сталинабад, 1959. – С. 89.; Мухтаров А. Очерк истории Ура-Тюбинского владения в XIX в. – Душанбе: Наука, 1964. – С. 183.; Хасанов А. Взаимоотношение киргизов с Кокандским ханством и Россией в 50–70 годах XIX в.: Дисс.... д-ра ист. наук. – Москва, 1961.

[4] Beysembiev T. Farghana's contacts with India in the 18th and 19th centuries (according to the Khokand chronicles): In Memory of Sir E. Denison Ross, the Eminent British Orientalist // Journal of Asian History. – 1994. – Vol. 28. – №2. – P. 124–135; Тот же автор: Кокандская историография. Исследование по источниковедению Средней Азии XVIII–XIX веков. – Алматы, 2009. – С. 1263.

[5] Маъмуров А. Relations дипломатии Хонлии Хӯқанд бо Империяи Тсӯн (Син) дар асри XIX / А. Маъмуров. – Хуҷанд: Ношир, 2015. – С. 88–134; Турсунов Б. Дипломатические отношения Кокандского ханства при правлении Мухаммада-Алихана (1822–1842) // Номаи донишгоҳ-Учёные записк. – Хужанд, 2019. – №1 (58); Тот же автор: История политической жизни Кокандского ханства. Книга I. – Худжанд, 2021. – С. 349.; Тот же автор: История политической жизни Кокандского ханства (с 1709 г. до первой половины 50-х годов XIX в.). Автореф. дисс…д-ра ист. наук. – Душанбе, 2022; Абдукаримов Ж. Политическое положение Ура-Тюбинского владения и Худжанда в начале XVIII до 40-х гг. XIX в. (по материалам «Мунтахаб ат -таварих» Мухаммада Хакимхана). Автореф. дисс.… канд. ист. наук. – Душанбе, 2020.

[6] Saray M. Rus isgali devrinda Osmanli devleti ile Turkistan hanliklari arasindeki siyasi munasabetler (1775–1875). – Ankara: Turk tariuh kurumu, 2017. – 200 s.; Тот же автор: The Russian, British, Chinese and Ottoman Rivalry in

Связь темы исследования с научно-исследовательской работой высшего учебного заведения, в котором выполнена диссертация. Данная работа выполнена с планом научно-исследовательских работ Каршинского государственного университета.

Цель исследования заключается в изучении на основе имеющихся источников и научной литературы вопросов, связанных с дипломатическим протоколом и этикетом Кокандского ханства в XVIII–XIX веках.

Задачи исследования:

анализ процесса формирования механизма внешних дипломатических отношений в ханстве и особенностей его практической реализации;

освещение дипломатического этикета и правил ведения переговоров в Кокандском ханстве;

научный анализ взаимоотношений ханства с Бухарским эмиратом и Хивинским ханством;

освещение взаимоотношений Кокандского ханства с Российской империей;

научно-сравнительный анализ взаимоотношений Кокандского ханства с Османской империей;

анализ значения взаимоотношений Кокандского ханства с Восточным Туркестаном и Китаем;

анализ аспектов государственного управления и легитимации власти в ханстве, связанных с его внутренними и внешними отношениями. Кроме того, на основе выводов, полученных в процессе изучения и анализа источников и научной литературы по теме исследования, предполагается разработать дополнительные предложения и рекомендации.

Объект исследования дипломатическая деятельность Кокандского ханства в XVIII–XIX веках, включая сложившиеся в этот период нормы дипломатического протокола, порядок осуществления дипломатических процедур и этикет.

Предмет исследования составляют история и особенности дипломатического протокола и этикета Кокандского ханства, включая порядок организации и проведения дипломатических миссий, приёма иностранных послов, ведения переговоров, осуществления дипломатических церемоний и официального общения с представителями зарубежных государств.

Методы исследования составляют систематизация и обобщение исследовательского материала, комплексный анализ проблематики, историко-сравнительный метод и принцип периодизации, а также принципы историзма и объективности.

Turkestan. – Ankara: Turk tariuh kurumu 2003; Erdogru Akif. The Khoqandi Envoys in Ottoman Istanbul // Central Asian Journal. – 2008. – №52/1. – Pp. 1–11; Macit Abdulkadir. Başbakanlık Osmanlı Arşiv Belgeleri Işığında XIX. Yüzyıl. Osmanlı – Hokand Hanlıgı Münasebetleri. (Yüksek Lisans tezi). – İstanbul, 2008; Otakhonov F Hokand Hanlığı Merkez Teşkilatı Doktora Tezi. – Ağustos 2023.; Hüseyin ŞEN Muhammed Ali Han dönemi Hokand hanliği (1822–1842): Doktora tezi. – Istanbul, 2020; Kamalova Z. Hüdayar han döneminde hokand hanliği (1845–1875): Doktora tezi. – Istanbul, 2019.

Научная новизна исследования заключается в следующем:

впервые комплексно раскрыты институциональные основы внутренней и внешней дипломатической деятельности Кокандского ханства начиная с XVIII века. В отличие от большинства имеющихся научных исследований, основное внимание в которых уделяется отдельным аспектам дипломатических отношений, в диссертации на основе документальных и фактических материалов выявлены особенности, характер и содержание взаимоотношений Кокандского ханства с рассматриваемыми государствами, а также системно исследованы нормы дипломатического этикета и правила ведения переговоров. На основе историко-сравнительного анализа полученных материалов сформулированы соответствующие научные выводы;

установлены основные формы реализации политико-дипломатических отношений Кокандского ханства с сопредельными государствами – личные встречи правителей, обмен посольскими миссиями, заключение военно-политических союзов и династические браки; выявлены их роль и значение в механизме внешнеполитического взаимодействия ханства. На основе сопоставительного анализа сведений о Чодакских ходжах и предании об «Олтын бешик», содержащихся в «Тарихи Туркистон» и сочинении Мушрифа Мирзо Каландара Исфараги «Шахнамеи нусратпаём», уточнены содержание и исторический контекст данных сюжетов. На основании анализа письменных источников конкретизированы функции, полномочия и место должности шиговула в системе государственного управления и дипломатического взаимодействия Кокандского ханства;

